

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi**

**Samarqand davlat universiteti
Tarix fakulteti
Umumiy tarix kafedrası**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

**Mavzu: O'zbekistonning Rossiya federatsiyasi bilan xalqaro munosabatlari
tarixi**

**5A 220203- «Umumiy tarix» mutaxassisligi magistr-akademik
darajasini olish uchun.**

Bitiruvchi: Abdullaev O'ktamjon

Ilmiy rahbar: tarix fanlari doktori, prof. R.F.Farmonov

Samarqand – 2012

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. <i>O'zbekiston - Rossiya munosabatlarning shakllanishi va dastlabki qadamlar. (1991-2000yy.)</i>	
I.1. Ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda ilk qadamlar.....	8
I.2. O'zaro munosabatlar huquqiy asoslarining barpo etilishi.....	12
I.3. Teng huquqli hamkorlikning dastlabki amaliy natijalari.....	18
II bob. <i>O'zaro hamkorlikning kengayishi va yanada rivojlanishi (2001-2011yy)</i>	
II.1. Xalqaro siyosiy va xavfsizlik masalalaridagi yakdillik.....	31
II.2. Davlatlarning iqtisodiy sohadagi hamkorliklari samarasi... ..	44
II.3. Madaniy aloqalarning yo'lga qoyilishi va rivojlanishi.....	60
Xulosa	67
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	69
Ilova	72

KIRISH.

1991-yili O'zbekiston birinchilardan bo'lib Sobiq Ittifoq tarkibidan ajralib chiqib o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Bu voqea o'zbek xalqining asrlar davomida intiqib kutgan orzusi edi. Mamlakatimiz ichki hayotida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Tashqi siyosat masalasida ham O'zbekiston o'z ovozi va nufuziga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish davlat - faoliyatining yangi va amalda qo'llanilmagan yondashuvlaridan biridir. Yakka hokimlik tizimi sharoitida O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan-to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lib, o'zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, yetarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi.¹ Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston jahon hamjamiyatiga kirib borish, jahonning barcha mamlakatlari bilan teng huquqli hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Natijada O'zbekiston jahonning qator mamlakatlari bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlikni olib borishga yo'l ochib berdi.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida bir necha o'n yilliklarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatiga o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. O'zbekiston tashqi siyosatga, amalga oshirish yo'llarini belgilashga negiz qilib olingan prinsiplardan biri ham "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik asosida quriladi "²-deb belgilangan.

¹ И.А.Каримов Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.Т.: Ўзбекистон. 1992. -Б.24

² Ўша ерда, -Б.26

Yuqoridagi tamoyillardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi jahonning barcha mamlakatlar bilan ko'p tomonlama va teng huquqli hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi bilan davlatlararo teng huquqli munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda.

1991-yil oxiriga kelib SSSRdek ulkan imperiya tarqab ketgach, g'oyat murakkab va qaltis davr yuzaga keldi. Avvalo davlatlararo munosabatlar tizimidagi muvozanat buzildi. Endilikda har bir mustaqil davlat o'z taqdirini o'zi belgilash orqali ichki imkoniyatlarini ishga solishi zarurati tug'ildi. Shunday bir vaziyatda o'zini endi tiklab olishga urinayotgan O'zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi bilan turli sohalarda hamkorlik qilish, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish yo'lini tanlaydi. Rossiya Federatsiyasi uchun ham boshidan kechirayotgan inqirozli yillarda O'zbekiston bilan hamkorlik ancha ijobiy siljishlarga olib kelardi. 1991-yil 26-oktabrda I.Karimov rasmiy davlat safari bilan Moskvaga bordi. Uchrashuvda I.Karimov va B.Yelsin ikki davlat o'rtasida muxtor vakolatxonalar ochish, bir-birining suverentetini va hududiy yaxlitligini hurmat qilish, tashqi siyosatda va iqtisodiy masalalarda hamkorlik qilishga kelishib olgan edilar.

Ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar nechog'li muhim ahamiyat kasb etayotganligi va ikki mamlakat aloqalarining yangi yo'nalishda tuzilishi, shakllanishi va rivojlanishini o'rganish dolzarb mavzulardan biridir. Barcha mamlakatlar bilan teng huquqli hamkorlik mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim tamoyillaridan biridir. Jahonda iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ilmiy, texnikaviy jihatdan nufuzli hisoblangan Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik ham teng huquqli hamda o'zaro manfaatlilik tamoyiliga asoslanadi. Sobiq Sho'ro davrida Rossiya Federatsiyasi "katta og'a" sifatida ish tutgan bo'lsa, ittifoq tarqagach Rossiyada yuz bergan demokratik jarayonlar hamda yangi tashkil topgan mustaqil davlatlar bilan qaror topgan munosabatlar xalqaro norma asosida amalga oshirila boshladi. Bugungi yangi tarixiy sharoitda vujudga kelgan yangicha

munosabatlar ikki mamlakat uchun ham teng manfaatli ekanligini jamoatchilikka ayniqsa yosh avlodga yetkazish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Qolaversa, bu mavzuga oid maxsus adabiyotlarning deyarli yo'qligi, turli risola, maqola va asarlarda qisman aloqalarning ba'zi sohalariga bag'ishlangan ma'lumotlarning mavjudligi shu mavzuni chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari :

- Vujudga kelgan yangi sharoitda ikki mamlakat iqtisodiyotining ham tobora erkinlashib borayotganligi, ikkala mamlakatda ham demokratik davlat va fuqarolik jamiyati yo'lidagi erishilayotgan muvaffaqiyatlar ular o'rtasidagi teng huquqli hamkorlikning muhim omili ekanligini ko'rsatish;

- Teng huquqlilik asosida tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan munosabatlarning o'sish dinamikasini tahlil qilish;

- Prezident I.A.Karimov asarlarida ikkala mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning nazariy, ilmiy va amaliy asoslari aks etganligini har tomonlama o'rganish va tahlil qilishdan iborat ;

- Sobiq ittifoq tarqalgandan so'ng Rossiya sho'ro davridagi hukmronlik pozitsiyasidan va "katta og'a"lik mavqeyidan voz kechganligini, yangi demokratik davlat va xalqaro munosabatlar sub'ektiga aylanganligini ko'rsatish;

- O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiy integratsiyalashib borish jarayonini Rossiya - O'zbekiston munosibatlari misolida tadqiq etish;

- Ikkala mamlakatning aksariyat xalqaro masalalar yuzasidan tutgan pozitsiyalar umumiyligi shuningdek har qaysi mamlakatning o'z milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda farqli pozitsiyalari ham mavjudligini o'rganish;

- Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning yildan yilga chuqurlashib, kengayib borayotganligini hamda o'zaro ishonchning mustahkamlanib borishini ko'rsatish.

- Ikki mamlakat munosabatlarning sohalar bo'yicha amaliy natijalariga oid ilmiy maqola va risolalar tayyorlash;

Dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati: dissertatsiya ishining tadqiqot qismi va xulosa qismida keltirilgan ma'lumotlardan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida tarix fani darslarida, xalqaro munosabatlar tarixini o'rganishda, Oliy ta'lim muassasalari tarix fakultetlari hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) fakultetlarida maxsus kurs ma'ruzalarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi:

- O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida hamdostlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik va uni rivojlantirish, bunday hamkorlik ikki davlat o'rtasidagi, ya'ni O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan davlatlararo aloqalarini yolg'a qo'yish va chuqurlashtirish jarayoni to'liq yoritildi;
- Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar harbiy-texnikaviy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnikaviy sohalarida keng miqyosda amalga oshirilganligi misollar bilan ko'rsatib berildi;
- Hozirgi paytda har qaysi davlat – O'zbekiston ham, Rossiya ham o'zining uzoq va davomli strategic manfaatlarini chuqur anglab, tahlil qilib, teng huquqli aloqalarni o'rnatishni ma'qul topib keng aloqalar olib borayotganligi yoritildi;
- XXI asr – information-axborot texnologiyalari rivojlangan asrda internet manbalaridan va ommaviy axborot vositalari materiallaridan keng foydalangan holda dissertatsiya ishini eng yangi ma'lumotlar asosida bajarildi.

Dissertatsiya ishining ob'yektini O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi dastlabki diplomatik aloqalarning o'rnatilishi, davlat rahbarlarining rasmiy tashriflari, turli sohalaridagi hamkorlik, strategik va ittifoqchilik munosabatlarining vujudga kelishi hamda xalqaro munosabatlarda har ikkala davlatning manfaatlari mos kelganligi va munosabatlarning tobora rivojlanish jarayonlari tashkil qiladi.

Dissertatsiya ishining predmeti: O'zbekistonning mustaqillik tufayli jahon hamjamiyatiga kirib borib, dunyoning nufuzli davlatlari, jumladan Rossiya Federatsiyasi bilan teng huquqli hamkorlikni yo'lga qo'yishi, iqsodiy, siyosiy

hamda madaniy sohalarda erishilgan va erishilayotgan yutuqlarni tahlil qilish, ilmiy asoslab berishdan iborat.

Dissertatsiya ishining o'rganilish darajasi. Dissertatsiya ishini yoritishda O.A.V (ommaviy axborot vositalari): “Xalq so'zi”, “O'zbekiston ovozi”, “Ishonch”, “Turkiston”, “Pravda Vastoka” ,“XXI asr” kabi davriy matbuot nashrlarida O'zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi munosabatlarining rasmiy va norasmiy uchrashuvlari, ikki mamlakat delegatsiyalarining tashriflariga oid maqolalardan, shuningdek ikki mamlakat prezidentlarining davlat tashriflarida so'zlagan nutqlari va O.A.V (ommaviy axborot vositalari) muxbirlariga bergan intervyularidan, <http://mfa.uz/> , <http://gov.uz/>, <http://www.russia.uz,> www.uzembassy.ru kabi rasmiy saytlardan, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridan ham unumli foydalanildi. Chunki Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining nazariy va amaliy jihatlarini puxta ishlab chiqib, o'z asarlarida aks ettirganlar.

Dissertatsiya ishining davriy chegarasi: mazkur ishning davriy chegarasi 1991-yildan 2011-yilgacha, ya'ni mamlakatimiz mustaqillikka erishib, Rossiya Federatsiyasi bilan diplomatic aloqa o'rnatgan kundan to 2011-yilgacha bo'lgan 20 yillik ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar tarixini o'z ichiga oladi.

Dissetatsiya ishi kirish, ikki bob olti fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissetatsiya ishining umumiy hajmi ____ betni tashkil etadi.

I-bob. O'zbekiston - Rossiya munosabatlarning shakllanishi va dastlabki qadamlar.(1991-2000yy.)

I.1 Ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda ilk qadamlar.

O'zbekiston mustaqillik tufayli o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlatdir. Bu yo'l jahonda o'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning ratsional mag'zi jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyusion - tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi. Taraqqiyotning o'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlari va mentalitetiga tayangani, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslangani tufayli xalqaro hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.³

O'zbekiston tashqi siyosatining muhim tamoyili dunyoning barcha mamlakatlari bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga ko'yish hisoblanadi. Shu asnoda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi munosabatlarlar shakllanib, rivojlanib bormoqda. 1991-yili 26-oktabr kunida Moskva shahriga I.A.Karimov boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasi rasmiy delegatsiyasining ikki kunlik davlat tashrifidan boshlab ilk qadamlar qo'yildi desak xato bo'lmaydi. Mazkur tashrifda O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi tarkibi: O'zbekiston Respublikasi Oliy kengash raisi Sh.M.Yo'ldoshev, vitse-prezident Sh.R.Mirsaidov, Vazirlar Mahkamasi raisining o'rinbosari B.S.Hamidov, Prezidentning maslahatchisi Sh.S.Ziyomov, tashqi ishlar vaziri Sh.N.Mahmudova, Respublika Oliy kengashi Komiteti raisi E.Xalilov, Respublika hukumatining Moskvadagi doimiy vakili vazifasini bajaruvchi A.A.Saidovlar Rossiya rahbarlari bilan muloqot o'tkazdilar.⁴ Shu kuni O'zbekiston Respublikasi va RSFSR delegatsiyalari O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida tarixan tarkib topgan har tomonlama do'stlik va hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga azmu qaror berilganligini tasdiqladilar.

³ А.Гоффоров. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. 2005 йил 114 -бет

⁴ С.Фенютин. Ўзбекистон ва Россия -тенг ҳуқуқлилар мулоқоти. //Халқ сўзи;1991 йил, 29 октябрь.

me'yorlarga, Xelsinki yakunlovchi aktining hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlikka bag'ishlangan kengash boshqa hujjatlarining qoidalariga so'zsiz sodiq ekanligini bildirdilar hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi 1991-yil 31-avgust kuniga va RSFSRning Davlat suvereniteti haqidagi 1990-yil 12-iyun deklaratsiyasiga asoslanib ikki mamlakat delegatsiyalari o'rtasidagi muzokaralarning yakunlari yuzasidan Axborot imzolangandi.⁵

O'zbekiston Respublikasi vise-prezident Sh.R.Mirsaidov bilan RSFSR Vazirlar kengashi raisining birinchi o'rinbosari O.I.Labov Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi bitim imzoladilar. Ikkala mamalakat Prezidentlari jurnalistlar bilan suhbatda bo'ldilar. Suhbat davomida I.A.Karimov - "Imzolangan hujjatlarning muhim jihatini ta'kidlab o'tmoqchiman. Ular ichidagi asosiysi, biz teng huquqli mustaqil davlatlar sifatida shartnoma imzoladik, Biz rossiyaliklarga, Rossiyaga izzat-hurmatimizni har safar ta'kidlashga intilamiz. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida azaliy aloqalar bor. Bu aloqalar shu qadar ildiz otganki, bu ildizlarni sug'urib tashlash bema'nilik bo'lur edi"⁶ -deb takidlagan edilar.

1992-yil 20-martda Kiyev shahrida O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida Protokol imzolangan bo'lsa,⁷ 1992-yil 5-mayda Moskvada O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar asoslari to'g'risidagi Shartnoma imzolandi,⁸ 1992-yil 22-iyulda esa Toshkentda Rossiya Federatsiyasi Bosh vaziri A.Shoxin boshchiligidagi Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston delegatsiyalarining muzokaralari bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida O'zbekiston Rossiya munosabatlarni rivojlantirishga aloqador qo'shma axborot imzolangan edi.⁹

⁵ Ўзбекистон Республикаси ва Россия Совет Федератив Социалистик Республикасининг расмий делегациялари ўртасидаги музокараларнинг якунлари юзасидан Ахборот. //Халқ сўзи; 1991 йил, 29 октябрь.

⁶ С.Фенютин. Ўзбекистон ва Россия -тенг ҳуқуқлилар мулоқоти. //Халқ сўзи; 1991 йил, 29 октябрь.

⁷ В.Тюриков, Р.Ғуломов. Истиқлол йилномаси одамлар, саналар ва воқеалар (1991-2001). Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. –Б. 514.

⁸ Ўша ерда, –Б. 517.

⁹ Ўзбекистон Республикаси ва Россия Федерацияси ҳукумат делегацияларининг учрашуви тўғрисида Ахборот. //Халқ сўзи; 1992 йил, 24 июль.

1993-yil 26-may kuni I.A.Karimov “Trud” gazetasi muxbirlarining savollariga qaytargan javoblarida Rossiyaga munosabatini bildirib, quyidagilarni ta’kidladi: "Rossiya biz uchun suv va havodek zarur. Men rejalashtirish idoralarida ko’p yillar ishlaganman. Aloqalarimiz naqadar kengligini bilaman.Ma’naviy yaqinligimiz ham juda muhim.Rossiyaning kelajagi buyuk. Azaldan buyuk davlat bo’lib kelgan,tarix uning o’rnini ana shunday belgilab qo’ygan”.¹⁰

Ikki mamlakat o’rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, parlamentlararo, samolyotsozlik va madaniyat sohalarida teng huquqli va o’zaro manfaatli hamkorlik yo’lga qo’yila boshlandi.

O’zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o’rtasidagi iqtisodiy hamkorlik alohida ahamiyatga ega bo’lib mamalakatlarimiz o’rtasida bu sohani rivojlantirishga oid bir qator amaliy qadamlar tashlandi.

1993-yil 19-martda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasi Vazirlar Kengashi Raisi Viktor Chernomirdin bilan uchrashdi. Muzokaralar chog’ida moliya kredit, madaniyat, fan va texnika, ta’lim, sog’liqni saqlash, axborot almashish, geodeziya va kartografiya, avtotransport sohalarida hamkorlik to’g’risidagi Bitimlar imzolangan bo’lsa,¹¹ 1993-yil 11-noyabrda esa Toshkent shahrida O’zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining soliq xizmatlari o’rtasida Bitim imzolandi. Bu bitim MDH mamlakatlari o’rtasida ikki tomonlama tuzilgan birinchi bitimdir.¹²

1994-yil 2-3-martda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Rossiya Federatsiyasiga rasmiy davlat tashrifi bo’lib o’tdi. Uchrashuvda Rossiya Prezidenti Boris Yelsin bilan olib borilgan muzokaralar yakunlari bo’yicha O’zbekiston va Rossiya o’rtasidagi ko’p tomonlama hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash to’g’risida Deklaratsiya iqtisodiy

¹⁰ М.С.Ғафарли, А.Ч.Касаев.Ривожланишнинг Ўзбек модели:Тинчлик ва барқарорлик тараққиёт асоси. Т.: Ўзбекистон. 2001.-Б.410.

¹¹Хужжатлар имзоланди.//Халқ сўзи; 1993 йил, 20 март.

¹²В.Тюриков,Р.Ғуломов.Истиқлол йилномаси одамлар,саналар ва воқеалар (1991-2001). Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. –Б. 526.

integrasiyani chuqurlashtirish to'g'risida Shartnoma imzolandi.¹³ Uchrashuvdan so'ng Prezident Islom Karimov muxbirlarning savollariga javob berdi va "Bugun imzolangan hujjatlar mamlakatlarimizning ham siyosiy, ham iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular teng huquqlilik asosida qurilgan"¹⁴-deb ta'kidlagan edi.

¹³ Акмад Хўжа. Ўзаро манфаатдорлик йўли. //Халқ сўзи; 1994 йил, 5 март.

¹⁴ Ўша ерда.

I.2. O'zaro munosabatlar huquqiy asoslarining barpo etilishi.

1994-yil 6-martda O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi Deklaratsiya e'lon qilindi.¹⁵ 1994-yil 10-martda O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida Shartnoma, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida harbiy sohada hamkorlik qilish to'g'risida Shartnoma qabul qilingandi.¹⁶

1995-yil 17-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimizga tashrif buyurgan Rossiya Federatsiyasi Bosh vazirining o'rinbosari Aleksey Bolshakovni qabul qildi va ikki davlat o'rtasida savdo, iqtisodiy va boshqa aloqalarni yanada kengaytirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.¹⁷ 1995-yil 26-28-iyul kunlarida mamlakatimizda Rossiya Federatsiyasi Hukumat Raisi Viktor Chernomirdin rasmiy tashrif buyurdi.

Prezident Islom Karimov ikki mamlakat aloqalari haqida to'xtalib: "Biz Rossiyani buyuk mamlakat, azaliy va ishonchli hamkor, Markaziy Osiyo mintaqasidagi tinchlik va barqarorlik kafili deb bilamiz"¹⁸, - dedilar.

Uchrashuv nihoyasida Islom Karimov va Viktor Chernomirdin O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish va kengaytirish to'g'risida Memorandumni, 1996-1997-yillarda iqtisodiy hamkorlikning siyosiy prinsiplari va yo'nalishlari to'g'risida hukumatlararo bitimni imzoladilar.¹⁹

Bu kabi hujjatlar yaqin yillar ko'rsatilganligi bilan ajralib turadi. Islom Karimov va Viktor Chernomirdin odatda uzoq yillik hamkorlik qayd etilgan

¹⁵ В.Тюриков, Р.Фуломов. Истиқлол йилномаси одамлар, саналар ва воқеалар (1991-2001). Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. –Б. 527.

¹⁶ Ўша ерда, –Б. 527

¹⁷ Президент хузурида қабул. //Халқ сўзи; 1995 йил, 18 март.

¹⁸ Дўстона муносабатлар равнақи. //Халқ сўзи; 1995 йил, 28 июль.

¹⁹ Дўстона муносабатлар равнақи. //Халқ сўзи; 1995 йил, 28 июль.

hujjatlarda belgilangan tadbirlar ko'proq qog'ozda qolib ketishi kuzatilganligini, shu bois qabul qilingan hujjatlarda aniq muddat va amaliy ishlar o'z aksini topganini ta'kidlagandilar.

1997-yil 12-fevral kuni mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi hukumat raisining o'rinbosari Valeriy Serov boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Uchrashuv chog'ida ikki davlat o'rtasidagi samolyotsozlik, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi va hukumat delegatsiya muzokaralarining yakunlariga doir protokol imzolandi.

O'zbekiston – Rossiya iqtisodiy munosabatlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri har ikkala mamlakatdagi xo'jalik subyektlarining bevosita aloqalari uchun qulay shart- sharoit yaratish, ya'ni mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirishdir. Ayni paytda respublikamizning Andijon, Xorazm, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan Rossiyaning turli viloyatlari korxonalari o'rtasida aloqa o'rnatilgan. Ular orasida Moskva, Sverdlovsk, Chelyabinsk, Sankt-Peterburg, Ivanovo, Tyumen tadbirkorlarining faolligi bilan ajralib turadi. 1997-yil 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasi Sverdlovsk viloyati gubernatori E.Rosselni qabul qildi. Suhbat chog'ida O'zbekiston bilan Sverdlovsk viloyati o'rtasida tovar ayriboshlash hajmini oshirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, korxonalar darajasida hamkorlikni yanada kengaytirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.²⁰ Ikki mamlakat sanoat korxonalari o'rtasidagi teng manfaatli aloqalarni kengaytirishni zamonning o'zi taqozo etmoqda. Xususan, Rossiyada O'zbekistonning qishloq ho'jalik mahsulotlari, yengil sanoat xom ashyosi, ayniqsa, o'zbek paxtasiga bo'lgan extiyoj qanchalik yuqori ekanligi sir emas. Uchrashuv doirasida Rossiya hukumat rahbarining birinchi o'rinbosari Vladimir Gustov jurnalistlarga bergan

²⁰ Президент хузурида қабул. //Халқ сўзи; 1997 йил, 29 ноябрь.

intervyusida.”Bugun Rossiya o’z yengil sanoatini loaqal biroz bo’lsada harakatga keltirib turmog’i darkor” deb aytgan edi.²¹

1997-yilning o’zida ekskavatorlar ishlab chiqarish bo’yicha “UzEks” , Kabel mahsulotlari ishlab chiqarish bo’yicha “Spektr”, shuningdek , telefon moslamalarini ishlab chiqarish bo’yicha “Alsib ” qo’shma korxonalariga asos solingandi.

1997-yil 22-23-dekabr Rossiya Federatsiyasi hukumatining raisi Viktor Chernomirdin amaliy tashrif bilan O’zbekistonda bo’ldi. Uchrashuvda O’zbekiston va Rossiya hukumatlari o’rtasida qo’shma hujjatlarni imzolash marosimi bo’ldi, jumladan investitsiyalarni rag’batlantirish va o’zaro himoya qilish, atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasida ilmiy texnikaviy hamkorlik to’g’risidagi Bitimlar imzolandi. Bitimlarni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Rossiya Federatsiyasi hukumatining raisi Viktor Chernomirdin imzoladilar. Shuningdek, savdo, iqtisodiyot, fan va boshqa sohalarda hamkorlik qilish to’g’risidagi hujjatlar ham imzolandi.

1998-yil 5-7-may kunlarida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Prezident Boris Yelsinning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasida bo’ldi. Uchrashuv yakunida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Boris Yelsin 1998-2007-yillarga mo’ljallangan O’zbekiston va Rossiya o’rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish to’g’risida Shartnoma, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining mamlakatimizga qilgan rasmiy tashrifi yakunlari bo’yicha qo’shma Kommyunike qabul qilindi.

Tashrifdan so’ng Islom Karimov ikki mamlakat aloqalari haqida to’xtaldi: Endi mustaqillikka erishgan paytlarimiz Moskvaning bizga munosabati boshqacha edi.Ochig’ini aytsak, u yerdagi ayrim siyosatchilar "bular bizdan ayrilib qayoqqa ham boradi, biroz vaqt o’tib, yana oldimizga o’zlari yalinib keladi", degan fikrda

²¹ Б.Собиров . Ўзаро ҳамкорликни ривожлантириш йўлида. //Ўзбекистон овози ; 1996 йил, 22 февраль

edilar. Ular bizni hamon sobiq ittifoqning bir respublikasi singari qarashda davom etardi. Ular O'zbekiston o'zining mustaqillik yo'lidan aslo qaytmasligini, bu davlat bilan faqat aloqani mustahkamlash kerakligini dastlab tushunib yetmadilar. Ular manfaat topish uchun o'zaro teng huquqli aloqalarni yo'lga qo'yish kerakligini singdira olmadilar. Bugun esa Rossiyada bunday qarashlar yaxshilik tomonga o'zgarganini ko'rib turibmiz"-deb takidlagandilar. 1998-yil 11-12-oktabrda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Boris Yelsin davlat tashrifi bilan mamlakatimizga tashrif buyurganida esa:

“O'zaro hamkorlik haqida gapirganda uchta muhim masalaga alohida e'tibor qaratmoq lozim:

- transport harakatlari va ularning tariflari bilan bog'liq. Negaki, ba'zan yo'lga ketayotgan sarf-harajat olib kelinayotgan yoki olib ketilayotgan mahsulot narxidan qimmatga tushyapti.
- Sherikchilik, ya'ni kooperatsiya masalasi mamlakatlarimizdagi sohalararo sheriklik munosabatlarini rivojlantirish kerak.
- Bojxona masalasi. Soliq va boj bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bartaraf etishdan har ikkala tomon ham birdek manfaat ko'radi,”-deb aytgan edi prezidentimiz I.A.Karimov B.N.Yelsin bilan rasmiy uchrashuvlarda so'zlagan nutqida.

Davlat tashrifi bilan mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Boris Yelsin ham ikki mamlakat hamkorligi haqida to'xtalib, "Biz O'zbekiston bilan tashqi siyosat, iqtisodiyot, harbiy-texnikaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish tarafdorimiz"-deb ta'kidladi.²²

1999-yil 8-yanvar kuni mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi hukumati raisining o'rinbosari Gennadiy Kulik tashrif buyurdi. Gennadiy Kulik mamlakatimiz rahbari bilan uchrashdi. Uchrashuvning asosiy mavzusi iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Rossiya hukumatlararo qo'shma komissiya

²² III. Умиров, Ф. Арзиев, А. Қиличев. Стратегик ҳамкорлик йўлида. // Халқ сўзи; 1998 йил, 13 октябрь.

faoliyati doirasida amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida iqtisodiy munosabatlarning yangi sohalarni yaratish, xususan, Rossiyaning o'zbek paxtasiga bo'lgan ehtiyoj masalalari bo'ldi.

1999-yil 11-fevral kuni esa Do'rmon qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasi Kengashi Raisi Yegor Stoyevni qabul qildi. Unda o'zaro manfaatli keng miqyosli iqtisodiy hamkorlikni yanada mustahkamlash, ikki davlat o'rtasida parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish xususida fikr almashildi. Shu kuni Do'rmon qarorgohining muzokaralar zalida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O'.Sultonov; Rossiya Federatsiyasi rasmiy delegatsiya a'zolari; Oryol, Kurgan, Voronej, Ivanov, Kaluga, Tyumen, Irkutsk, Omsk viloyatlari rahbarlari bilan uchrashdi. Muzokaralarning bosh mavzusi ikki mamlakatning iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish va mintaqalar o'rtasida tovar ayriboshlash hajmini oshirish bilan bog'liq masalalardan iborat bo'ldi.²³

Ikkala mamlakat o'rtasida hukumatlararo komissiya faoliyat olib bormoqda. 1999-yil 18-noyabrda Do'rmon qarorgohida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo komissiyaning to'rtinchi majlisi bo'lib o'tdi. Hukumatlararo komissiya doirasida mamlakatimiz delegatsiyasiga Bosh vazirning birinchi o'rinbosari, makro-iqtisodiyot va statistika vaziri B.Hamidov boshchilik qildi. Tomonlar mazkur komissiyaning uchinchi majlisida imzolangan protokol qarorlarining bajarilishi yuzasidan olib borilgan ishlar ko'rib chiqildi va so'ngra ikki tomonlama shartnomalar, bitim va protokollar investitsiyasi, ikki davlat o'rtasida tovar ayriboshlash, ya'ni paxta tolasi evaziga O'zbekistonga zarur moddiy texnikaviy resurslarni keltirish va davlatlararo "RosUzAgromash" moliya - sanoat guruhini tuzish bo'yicha o'zaro kelishuvni hayotga joriy qilish, davlatlararo "Ilyushin" aviasozlik kompaniyasining shakllanishi bilan bog'liq masalalar yuzasidan kelishib olingan edilar. Komissiya

²³ III.Умиров, М.Намозов Биз тенглик асосидаги ҳамкорлик тарафдоримиз.//Халқ сўзи; 1999 йил, 12 февраль.

a'zolari 2000-2002-yillar uchun mo'jallangan gumanitar sohasidagi hamkorlik dasturi loyihasini muhokama qildilar.

Komissiya so'nggida Rossiya delegatsiyasi rahbari V.Sherbak ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar haqida to'xtalib: "Avvalo, shuni aytishim kerakki, biz o'zbekistonlik hamkorlarimizdan mamnun va minnatdormiz. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish har ikki davlat uchun ham foydalidir. Shu bois bugungi majlisda biz oldimizga turgan bir qator masalalar yuzasidan fikr almashdik. Menimcha, bunday majlisning o'tkazilishi davlatlarimiz o'rtasida birdamlikni, do'stona aloqalarni, iqtisodiy munosabatlarni kuchaytiradi"²⁴ - deb takidlagan edi.

1999-yil 10-11-dekabr kunlarida esa O'zbekistonga Rossiya Federatsiyasi hukumati Raisi Vladimir Putin rasmiy tashrif bilan keldi. Tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Rossiya Federatsiyasi hukumati Raisi Vladimir Putin tomonidan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi harbiy va harbiy texnikaviy sohalardagi hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi Shartnoma imzolandi. Shuningdek, ikki davlat bojxona qo'mitalari tomonidan ikki davlat bojxona chegaralaridan aksizli mollarni olib o'tish ustidan bojxona nazaratini tashkil qilish va bojxonaning tashqi savdo statistikasi sohasidagi metodologik, axborot hamkorlik to'g'risidagi Protokollar, O'zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Kengashi va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi hukumat aloqasi va axborot Federal agentligi o'rtasida hamkorlik qilish to'g'risidagi Shartnoma ham imzolangandi.

²⁴ Хукуматлараро комиссия мажлиси.//Халқ сўзи;1999 йил, 19 ноябрь.

I.3 Teng huquqli hamkorlikning dastlabki amaliy natijalari

Mustaqillik yillaridan O'zbekiston va Rossiya o'rtasida o'zaro teng huquqli va manfaatli hamkorlik shakllanib kelmoqda. Bu hamkorlikni yanada rivojlantirish, yangi pog'onalarga ko'tarish, istiqbolli shartnomalar imzolash uchun ikki davlat rahbari ham birdek harakat qilmoqda.

2000-yil 28-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti vazifasini ijro etuvchi V.V. Putin janobi oliylariga yo'llagan maktubi matbuotda e'lon qilindi. Maktubda I.Karimov V.V.Putinni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi bilan samimiy tabrikladi. Vladimir Putinning prezidentlikka saylanishi bilan Rossiya o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. G'arb mamlakatlari va Rossiya matbuoti bu bosqich qanday bo'lishi haqida turli fikr va farazlar bildirgan edilar. Ammo ularning xulosalari bir-biriga juda yaqin: mamlakatda tartib-intizomni mustahkamlash, uni kuchli va rivojlangan davlatga aylantirish yangi rahbariyatning bosh maqsadi bo'lishi zarur.

G'arb davlatlari ham, qo'shni mamlakatlar ham Rossiyada barqaror va kuchli boshqaruv shakllanishidan manfaatdor. Chunki, Rossiyadek katta, ko'p millatli va yadroviy qurolga ega bo'lgan ulkan mamlakatni boshqacha yo'l bilan boshqarish qiyin.²⁵

Markaziy hokimiyatning bo'shligi mamlakatda bosh-boshdoqlik va iqtisodiy tanazzulni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun Rossiya jamoatchiligi Vladimir Putin qiyofasida mamlakatni yangi taraqqiyot yo'liga olib chiqadigan g'ayratli va shijoatli shaxsni ko'rdi. Bu o'z isbotini ham topdi.

V.V.Putinning hokimiyat tepasiga kelishi bilan vaziyat asta-sekin ijobiy tomonga o'zgara boshladi. U davlat mexanizmida oddiy tartib o'rnatish bilan birgalikda, Rossiyaning taqdiri, uning istiqboli va samarali demokratik davlat qurish imkoniyatlaridan kelib chiqib o'ziga xos integratsiyalashuv mafkurasini

²⁵ Б.Собиров. Жиддий ўзгаришлар даври.// Ишонч; 2000 йил 19 май.

ilgari surdi. Mazkur mafkura davlat va jamiyat qurilishi nuqtai nazaridan "suveren demokratiya" konsepsiyasi darajasiga ko'tarildi. Shu ma'noda, tashqi siyosiy faoliyatda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi, xususan, ma'lum nufuzga ega bo'lmay turib boshqa mamlakatlar va xalqlar orasida samarali siyosat yuritib bo'lmasligi, buning uchun milliy manfaatlar qanchalik ahamiyat kasb etsa, xalqaro obro'-e'tibor ham shunchalik muhim ekani anglab yetildi. Binobarin, obro'-e'tibor ham Rossiyaga, uning eng taraqqiy etgan davrlariga xos bo'lgan axloqiy-ma'naviy asoslarga tayanishi lozim.

O'z xalqi va siyosatchilar doirasining ishonchiga sazovor bo'lgan shaxs – Vladimir Putin o'zining davlat Prezidenti sifatida birinchi rasmiy safarini O'zbekistondan boshladi. U O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov taklifiga binoan 2000-yil 18-19-may kunlari rasmiy – amaliy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan.²⁶ Vladimir Putin Rossiya Prezidenti lavozimini rasmiy ravishda egallaganidan so'ng birinchi xalqaro tashrifini ayni O'zbekistondan boshlanganligini e'tiborga olganda, bu voqea Respublika uchun strategik ahamiyatga ega bo'ldi deb aytish mumkin.

Mamlakatimizning Markaziy Osiyodagi yetakchi mavqeyi, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mintaqa xavfsizligini ta'minlash, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashdagi qat'iyati halqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda. Ikki mamlakat – O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi ko'p qirrali aloqalarni tiklashni davrning o'zi taqozo etgan.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ta'kidlaganidek, "Rossiya bilan tarixan qaror topgan iqtisodiy, madaniy, do'stlik aloqalarimiz O'zbekiston uchun, qolaversa, butun mintaqamiz uchun hamisha muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Shuni ta'kidlashni istardimki, tenglik, o'zaro manfaatdorlik asosiga qurilgan, ikki davlat orasidagi ko'p tomonlama hamkorlik, strategik sheriklikni kuchaytirish uchun bugun yangi

²⁶ А.Каримов, А.Хасанов. Ўзбекистонга таҳдид-Россияга таҳдидир . //Халқ сўзи; 2000 йил,20 май.

imkoniyatlar paydo bo'layotgani har ikki tomon - Rossiya va Uzbekiston manfaatlariga ham mos keladi".²⁷

Toshkentda Vladimir Putinning 1999-yil dekabrda Rossiya Federatsiyasi Bosh vaziri bo'lgan vaqtida O'zbekistonga tashrif buyurgan edi. Islom Karimovning fikrlaricha : "Vladimir Putinning 1999-yilda O'zbekistonga qilgan tashrifidan keyin Moskva bilan Toshkent o'rtasidagi munosabatlar samimiylilik va o'zaro ishonch ruhiga ega bo'ldi".

1999-yil 18-19-may kunlari Toshkentda bo'lgan Rossiya delegatsiyasi tarkibida Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vaziri Igor Sergeyev, Tashqi ishlar vaziri Sergey Yastjemskiy, Rossiya Federatsiyasi Prezident Ma'muriyati boshlig'ining o'rinbosari Sergey Prikhodko, Yoqilg'i va energetika vazirligi rahbari vazifasini ijro etuvchi Viktor Kalyujniy va boshqa rasmiy kishilar bor edi. Ikki mamlakatning kengaytirilgan tarkibdagi delegatsiyalari o'rtasida muzokaralar o'tkazildi.

Ikki davlat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tartibdagi muzokaralari yakunlangach, hukumatlararo hujjatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tgan. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilmalari va Rossiya Federatsiyasi subyektlari orasida hamkorlikni kengaytirishga izchil kirishishga kelishib olingan: "Biz har gal uchrashganimizda o'zaro hamkorlikning ham O'zbekiston, ham Rossiya milliy manfaatlariga mos keluvchi yangi shakl va usullarini topishga muvaffaq bo'lyapmiz. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik bugungi kunda o'zaro ishonch, tenglik va bir-birimizga hurmat asosida qurilmoqda"²⁸, -degan edi. Shuningdek, Prezidentimiz, Vladimir Putinning rasman Prezident lavozimini egallaganidan so'ng o'zining birinchi rasmiy tashrifini, xorijiy safarini aynan O'zbekistondan boshlagani chuqur ramziy ma'noga ega ekanligiga e'tiborni qaratib, mazkur tashrif chog'ida muzokaralar samarali bo'lgani va o'zaro ishonch

²⁷ И.А.Каримов. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. Т.: "Ўзбекистон", 2000.-Б. 347.

²⁸ Э.Суюнов. Россия – Ўзбекистон ҳамкорлик ривожланмоқда.// Халқ сўзи; 2000 йил, 20 май

ruhida o'tganini ta'kidlagan edi. Vladimir Putin ham prezidentlik lavozimini egallagach ilk xorijiy safarini O'zbekistondan boshlagani tasodifiy emasligini aytgan edi.

“Bugungi kunda O'zbekistondan bizning mamlakatimizga ko'plab xom ashyo mahsulotlari chiqarilmoqda. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar barcha yo'nalishlar bo'yicha rivojlanib bormoqda. O'zbekiston bilan Rossiyaning bir - birini tushunish darajasi kundan kunga ortayotir. Bu esa, o'z navbatida, munosabatlar rivojining jadallashishiga turtki bo'layapti”²⁹, - degan edi uchrashuv yakunida Rossiya davlat rahbari.

Muhokamalar yakunida ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi ma'muriy hududiy tuzilmalarining Rossiya Federatsiyasi subyektlari bilan hamkorligini kengaytirish to'g'risidagi, shuningdek, xalqaro avtomobil qatnovi haqidagi Bitimlar imzolandi.³⁰

Ikki mamlakat o'rtasida o'zaro tovar ayriboshlash yil sayin o'sib bormoqda 1998-yilda O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi tovar aylanmasi 1 mlrd 53 mln dollarni tashkil qilgan bo'lsa, shundan O'zbekistondan Rossiyaga eksport 526 mln dollar Rossiyadan O'zbekistonga inport 527 mln dollarni tashkil etgan. 1999 yilda bu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan 17,8 foiz 864,8 mln dollarni tashkil qildi, savdo balansining saldosi O'zbekiston foydasiga 0,5 mln dollar bo'ldi. 1999-yilgi o'zbek eksportining takibi Rossiya yetkaziladigan mollarning eng ko'pchiligi qishloq xo'jalik mollari: sabzavot, meva va ularni qayta ishlash mahsulotlari, tamaki va paxta tolasiga to'g'ri keladi. Rossiyadan O'zbekistonga import qilingan mollar tarkibida ishlab chiqarish, texnika mahsulotlari ustunlik qiladi. 2000-yilda ikki mamlakat o'rtasida tovar aylanmasi to'qqiz foizga ko'paydi.

O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy aloqa qatnashchilari sifatida rossiyalik investorlar ishtirokidagi 2000-

²⁹И. Норматов. Келажак сари биргаликда. // Халқ сўзи. 2000 йил 19 май.

³⁰ В.Тюриков, Р.Фуломов. Истиқлол йилномаси одамлар, саналар ва воқеалар (1991-2001). Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.—Б.603.

yilda 170 ga yaqin korxona, shundan Rosssiya sarmoyasi yuz foiz bo'lgan salkam 30 korxona ro'yxatga olingan,³¹ Respublikada Rossiyadagi firma va kompaniyalarning 30 ga yaqin vakolatxonasi rasmiylashtirilgan, ular yo'lovchi va yuklarni samolyotda tashish, biopreparatlar ishlab chiqarish, transport-yekspeditorlik faoliyati, savdo-sotiq, to'qimachilik ishlab chiqish, agrosanoat majmuasi korxonalarini ta'minlash va boshqa shu kabi iqtisodiyot sohalari bilan shug'ulanadi.

Iqtisodiy sohaning yana bir muhim tarmog'i bu O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi samolyotsozlik va aviatsiya sohasidagi hamkorligidir. 1991-2000-yillar oralig'ida Ikki mamlakat o'rtasida mazkur sohadagi hamkorlikni rivojlantishiga alohida ahamiyat berildi. Jumladan, 1997-yil 12-fevral kuni mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi hukumat raisining o'rinbosari Valeriy Serov boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurgan edi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi hukumati o'rtasida yo'lovchi tashuvchi (IL-114) va yuk tashuvchi (IL-114T) samolyotlarini hamkorlikda yaratish, ularni ularni ko'plab ishlab chiqarish va foydalanishga topshirishni ta'minlash to'g'risida bitim imzolangandi.

1998-yil 5-7-may kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Prezident Boris Yelsinning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasida tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Rossiya Federatsiyasi Prezidentining Qo'shma Bayonoti, O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida IL-76MF va IL-76TF samolyotlarni birgalikda yaratish, seriyali ishlab chiqarish va foydalanish uchun yetkazib berishda bundan keyin ham hamkorlik qilish, shuningdek, IL-76, IL-78 samolyotlarini ishlab chiqarishni yaratish, ularning shakllarini o'zgartirishni taminlashga oid Shartnoma imzolandi. Hujjatlar Islom Karimov va Boris Yelsin tomonidan imzolangandi.³²

³¹ М.С.Фафарли,А.Ч.Касаев.Ривожланишнинг Ўзбек модели:Т инчлик ва барқарорлик тараққиёт асоси. Т.: Ўзбекистон. 2001.-Б.426.

³² Президент Москвага жўнаб кетди.// Халқ сўзи;1998 йил 6 май

1999-yil 26-yanvarda mamlaktimizga S.Ilyushin nomidagi Rossiya aviasozlik kompaniyasi bosh konstruktori Genrix Novojilov, kompaniya Bosh direktori Viktor Livanov, Davlatlararo aviatsiya qo'mitasi raisi Tatyana Anodina, shuningdek, "Pratt end Uitni" kompaniyasining rivojlanish masalalari bo'yicha vise-prezidenti Jozef Torketlar tashrif buyurgan edilar. Prezidentimiz Islom Karimov mazkur delegatsiya a'zolari bilan uchrashdi, Tashrif chog'ida o'zaro foydali hamkorlikni yana kengaytirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi. Uchrashuv yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Aviatsiya va havoda uchish Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi diplomi topshirildi.³³

Ushbu akademiya a'zoliciga ko'rsatilgan nomzod uning barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan tasdiqlangan taqdirdagina a'zo bo'la oladi. Bugungi kunda shu sohaning yetakchi olimlari va dunyoning deyarli barcha kosmonavtlari uning a'zolaridir. Bu safar ularning qarorlari yakdil bo'ldi. Islom Karimov aviatsiya texnikasini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun bu nufuzli akademiyaning haqiqiy a'zoliciga qabul qilingandi.

1999-yil 27-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroy qarorgohida Davlatlararo aviatsiya qo'mitasi raisi Tatyana Anodina va S.Ilyushin nomidagi Rossiya konstruktorlik byurosi Bosh konstruktori Genrix Novojilovni qabul qildi. Uchrashuvda hamkorlikni yanada rivojlantirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilingandi.

Shu kuni "V.Chkalov nomidagi Toshkent aviyatsiya ishlab chiqarish birlashmasi"ga Davlatlararo aviatsiya qo'mitasi tomonidan Il-114-100 rusumli samolyotning sertifikatini topshirildi. Ta'kidlash joizki bu hujjat dunyoning yetakchi aviasozlari tomonidan to'la e'tirof etildi. O'zbekiston, Rossiya, AQSh va Kanada hamkorligida yaratilgan bu havo kemasi ulkan loyiha asosida juda qisqa muddatda amalga oshirilgan mashaqqatli mehnatning samarasidir.

³³ Президент хузурида қабул. //Халқ сўзи; 1999 йил, 27 январь.

Bunda Xalqaro aviatsiya qo'mitasining xizmati ham katta bo'ldi. Zamonaviy aviatsiya texnikasini rivojlantirish, aviasozlarning xalqaro hamkorligini kengaytirish va shu orqali xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash yo'lidagi ulkan xizmatlari uchun qo'mita raisi T.Anodina mamlakatimizning "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi.³⁴

Ikki mamlakat o'rtasida 1991-2000-yillar oralig'ida mintaqaviy xavfsizlik, harbiy, harbiy-texnikaviy sohalarda ham hamkorlik doirasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

1994-yil 25-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Andrey Kozirev boshchiligidagi delegatsiyani qabul qilgandi. Prezidentimiz Islom Karimov - Ikki tomonlama aloqalar, dolzarb xalqaro mintaqaviy muammolar yuzasidan o'zaro muloqotlarimiz yaxshi an'analarga aylanib qoldi, -deb takidladilar. 1995-yil 26-28-iyul kunlarida mamlakatimizda Rossiya Federatsiyasi Hukumat Raisi Viktor Chernomirdin rasmiy tashrif buyurdi.³⁵

Tashrif doirasida muxbirlarning savollariga bergan javoblarda Tojikistondagi muammolarni bartaraf etishda ikki tomonlarning yakdilligi namoyon bo'ldi. Islom Karimov va Viktor Chernomidinlar Tojikiston muammosi muxolif tomonlarning tinch muzokaralari yo'li bilan o'zaro yon berishlar natijasida hal bo'lishi mumkinligini takidladilar. 1997-yil 24-fevralda esa mamlakatimizga Markaziy Osiyo mamlakatlari mudofaa vazirlarining uchrashuvida ishtirok etish uchun Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vaziri Igor Rodionov tashrif buyurgan edi. Tashrif davomida Igor Rodionov Islom Karimov bilan uchrashdi. Suhbat chog'ida hamkorlik munosabatlari, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, qo'shni Tojikistondagi so'nggi voqealar bilan bog'liq masalalar muhokama etildi.³⁶

³⁴ Оксаройда қабул.//Халқ сўзи;1999 йил, 28 декабрь.

³⁵ Дўстона муносабатлар равнақи. //Халқ сўзи; 1995 йил, 28 июль.

³⁶ Президент ҳузурида қабул. //Халқ сўзи; 1997 йил, 25 февраль.

1997-yil 22-23-dekabr kunlarida Rossiya Federatsiyasi hukumatining raisi Viktor Chernomirdin amaliy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Tashrif doirasida investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish, atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi Bitimlar imzolandi. Bitimlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Rossiya Federatsiyasi hukumatining raisi Viktor Chernomirdin imzoladilar. Shuningdek, savdo, iqtisodiyot, fan va boshqa sohalarda hamkorlik qilish to'g'risidagi hujjatlar ham imzolandi.³⁷ 1998-yil 11-12-oktabr kunlarida Afg'onistondagi vaziyat bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi Prezidentlarining qo'shma Bayonoti, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining mamlakatimizga qilgan rasmiy tashrifi yakunlari bo'yicha qabul qilingan qo'shma kommyunikeda:

“Prezidentlar O'zbekiston bilan Rossiyaning BMT, boshqa xalqaro tashkilotlar va kafil davlatlar bilan hamjihatlikda Tojikistonda tinchlik va milliy totuvlikni o'rnatish to'g'risidagi Umumiy bitimni kompleks bajarish, shuningdek, uning iqtisodiy tiklanishi va taraqqiyoti asosida Tojikistonda tinch jarayonning olg'a siljishi uchun hamkorlikni davom ettirish niyatini tasdiqladilar”³⁸

1999-yil 1-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Do'rmon qarorgohida Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vaziri Igor Sergeyevni qabul qildi. Uchrashuv chog'ida Markaziy Osiyo mintaqasida diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi hamkorlikda kurash olib borish, Qirgizistonning janubida yuzaga kelgan vaziyatga ham alohida etibor qaratildi, shuningdek, mamlakatlarimiz o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarga oid masalalari yuzasidan fikr almashildi.

2000-yil 17-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroy qarorgohida Rossiya Federatsiyasi Xavfsizlik kengashining kotibi Sergey

³⁷ Ўзбекистон-Россия ҳамкорлигининг янги bosqichi. //Халқ сўзи; 1997 йил, 23 декабрь.

³⁸ Россия Федерацияси Президенти Б.Н.Ельциннинг давлат ташрифи якунлари юзасидан ҚЎШМА КОММУНИКЕ. //Халқ сўзи; 1998 йил, 13 октябрь

Ivanovni va Rossiya Federatsiyasi hukumat raisining o'rinbosari Ilya Klebanovni qabul qilgan bo'lsa, 2000-yil 10-aprel kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidentining maxsus vakili Sergey Yastrjembskiy qabul qildi. Sergey Yastrjembskiy Islom Karimovga Rossiya Federatsiyasi Prezidentining maxsus maktubini topshirdi. Muzokaralar davomida mintaqa xavfsizligi va O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabat masalalari yuzasidan fikrlashib olindi. 2000-yil 21-iyunda Moskva shahrida MDHga a'zo davlatlar boshliqlari kengashining majlisi bo'lib o'tdi. Oliy darajadagi uchrashuvlar tugagach, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashdi. Suhbat chogida ikki tomonlama aloqalarni yanada rivojlantirish, xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurashish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ham fikr almashib olingan edi.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida parlamentlararo aloqalari ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Ikki mamlakat vazirliklari, hukumat organlari, Oliy majlis va Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasi o'rtasidagi aloqalar ham muhim ahamiyat kasb ettadi. Jumladan, 1994-yil 25-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov taklifiga binoan mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Andrey Kozirev boshchiligidagi delegatsiyani, 1996-yil 28-yanvarda va Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Ye.Primakovni, mudofaa vaziri P.Grachev, MDHga a'zo bo'lgan mamlakatlar bilan hamkorlik bo'yicha vazir V.Serovni I.Karimov qabul qildi. Uchrashuvda har ikki davlat o'rtasida o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashga doir masalalar muhokama qilingandi.

1996-yilning 22-fevral kuni Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Ye.Primakovni mamlakatimizga tashrif buyurdi. Bu galgi tashrifda ikki tomonlama hamda mintaqaviy hamkorlik masalalari bo'yicha fikr almashildi, hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi urtasidagi 1996 hamkorlik dasturi A.Komilov va

Ye.Primakovlar imzoladilar.³⁹ 1996-yil 9-avgust O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bo'lib o'tgan umumxalq saylovida davlat boshlig'i lavozimiga qayta saylangan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Boris Yelsinning o'z vazifasini bajarishga kirishuviga bag'ishlangan rasmiy marosimda ishtirok etgandi.⁴⁰

1997-yil 12-fevral kuni esa mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi hukumat raisining o'rinbosari Valeriy Serov boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi o'rtasidagi 1997 hamkorlik dasturi imzolandi. 1997-yil 23-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasi raisi Gennadiy Seleznyovni qabul qildi.⁴¹ Uchrashuvda O'zbekiston bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida hamkorlik va parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha fikr almashilgandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis delegatsiyasi 1998-yil 6-12- sentabr kunlarida Moskva shahrida Parlamentlararo Ittifoqning yuzinchi yubiley konferensiyasi ishida qatnashgan edi.⁴²

1999-yil 15-iyul kunida esa mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vaziri Igor Ivanovni tashrif buyurdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Igor Ivanovni Oqsaroy qarorgohida qabul qildi. Uchrashuvda ikki davlat o'rtasida hamkorlikni yanada rivojlantirish to'g'risida, mintaqaviy va xalqaro muammolar bo'yicha ikki mamlakatni qiziqtirgan boshqa masalalar yuzasidan fikr almashilgan edi.⁴³

Minsk shahrida 2000-yil 30-noyabrda O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi hukumati o'rtasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining o'zaro borib kelishlari

³⁹ Президент хузурида қабул. //Халқ сўзи; 1996 йил, 23 февраль.

⁴⁰ Президент Москвага жўнаб кетди. //Халқ сўзи; 1996 йил, 9 август.

⁴¹ Президент хузурида қабул. //Халқ сўзи; 1997 йил, 24 сентябрь.

⁴² В.Тюриков,Р.Ғуломов.Истиқлол йилномаси одамлар,саналар ва воқеалар (1991-2001). Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.—Б. 569.

⁴³ Оқсаройда қабул.//Халқ сўзи; 1999 йил, 16 июль.

to'g'risidagi Bitim imzolandi.⁴⁴ Bitim qoidalarga binoan bir tomon davlatining fuqarolari ikkinchi tomon davlatining hududiga alohida ruxsatnomasiz, shaxsi haqida guvohlik beradigan va egasining fuqaroligini tasdiqlaydigan hujjatlardan biri bo'yicha kirishi, chiqishi tranzit tarzida o'tishi, harakat qilishi va yashashi mumkin. Tomonlar davlatlarning uchinchi davlatlarda yashab turgan fuqarolari tomonlar davlatlarining hududiga ham alohida ruxsatnomasiz kirishi, chiqishi harakat qilishi, yashashi va tranzit tarzda o'tishi mumkin deb belgilandi.

Ikki mamlakat urtasidagi iqtisodiy, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik bilan birga gumanitar sohasidagi hamkorlik ham alohida ahamiyatga ega. Toshkentda 1998-yil 26-yanvar kunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga G.Plexanova nomidagi Rossiya Iqtisodiyot Akademiyasi faxriy doktori diplomini topshirish marosimi bo'lib o'tdi.⁴⁵ Rossiya iqtisodiyot akademiyasi 1907-yili tashkil etilgan bo'lib, dastlab "Tijorat talim tarqatuvchi Moskva jamoatchiligining Tijorat insituti " deb atalgan.1991-yilda insitut iqtisodiy akademiyaga aylantirildi. Hozir uning tarkibida moliya, marketing, bank va sug'urta insitutlari, ilmiy tadqiqot birlashmasi, iqtisodiy kibernetika, tovarshunoslik, boshqaruv singari kafedralar, magistrLAR tayyorlash markazi aspirantura va doktorantura va ko'pgina boshqa tuzilmalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Rossiya Iqtisodiyot Akademiyasi prezidenti Vitaliy Bidyapin Islom Karimovning ilmiy sohadagi buyuk xizmatlari to'g'risida so'zlab berdi va unga ana shu xizmatlari uchun bu yuksak ilmiy unvon berilganligini ma'lum qildi. G.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot Akademiyasi faxriy doktori diplomini, shuningdek, an'anaga ko'ra doktorlik mantiyasi va esdalik medali topshirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga G.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot Akademiyasi faxriy doktori diplomiga sazovor bo'lishi Rossiya ilmiy jamoatchiligi tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan

⁴⁴ А.Каримов.Хамкорлик ривожланиш сари. //Халқ сўзи; 2000 йил, 5 декабрь.

⁴⁵ Ўзбекистон эришган ютуқларнинг Россиядаги эътирофи. //Ўзбекистон овози; 1998 йил, 27 январь.

iqtisodiy islohotlar samarasining xolisona etirofi, xalqimiz etishayotgan yutuqlarning munosib baholanishidan dalolatdir.

1998-yil 5-7-may kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Prezident Boris Yelsinning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.⁴⁶ Uchrashuvda O'zbekiston va Rossiya hukumatlari o'rtasida madaniy axborot markazlarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish shartlari O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari muxbirlarining Rossiya Federatsiyasidagi maqomi va Rossiya Federatsiyasi axborot vositalari muxbirlarining O'zbekistondagi maqomi to'g'risida Shartnomalar imzolandi.

O'zbekiston Respublikasida Rus madaniyat muassasalariga zarur binolar bermoqda. Rus tilida chiqadigan gazeta va jurnallar soni esa yil sayin ko'paymoqda. 1994-yilda O'zbekistonda rus tilida 52 ta gazeta va 15 ta jurnal nashr etilgan bo'lsa, 2000-yil o'rtalariga kelib rus tilida chiqadigan gazetalar soni 69 taga va jurnallar soni esa 27 taga yetgan.⁴⁷ Bundan tashqari O'zbekistondagi Rus drama teatri O'rta Osiyo mamlakatlaridagi eng yaxshi rus teatri hisoblanadi. 1998-yilda O'zbekiston Rahbariyati unga yangi zamonaviy va qulay bino ajratdi.

1999-yil 11-fevral kuni mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi Kengashi Raisi Yegor Stoyevni tashrif buyurgan edi. Tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Yegor Stoyevlar Toshkent markazidagi O'zbekiston Akademik Rus drama teatriga tashrif buyurdilar va teatr jamoasi bilan uchrashilar. Islom Karimov sa'natkorlarni manaviy jihatdan qo'llab quvatlash bilan bir qatorda, ularga o'z iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratib berish, juda muhim ahamiyat ega ekanligini ta'kidladi. Ye.Stoyev O'zbekistonda madaniyat va san'at ahliga davlat tomonidan alohida etibor qaratilayotganiga guvoh bo'lganini qayd etgandi.

⁴⁶ В.Тюриков,Р.Ғуломов.Истиқлол йилномаси одамлар,саналар ва воқеалар (1991-2001). Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.–Б. 566.

⁴⁷ М.С.Ғафарли,А.Ҷ.Қасаев.Ривожланишнинг модели:Тинчлик ва барқарорлик тараққиёт асоси. Т.: Ўзбекистон. 2001.–Б.423.

Xullas O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, jahonda o'z ovozig, mavqyeiga ega bo'ldi va mustaqil, teng huquqli, o'zaro manfaatlik hamkorlik olibborish imkoniyatiga ega bo'ldi. Buni biz Rossiya Federatsiyasi bilan bo'lgan munosabat misolida ko'ra olamiz. Bu ikki mustaqil davlat aloqalari uzoq o'tmishga borib taqaladi. 1991-yilda Sobiq ittifoq tarqagach ikkila mamlakat munosabatlarda yangicha yo'nalish shakllandi va o'z rivojlanish bosqichiga chiqdi. 1991-2000-yillar davomida iqtisodning barcha yo'nalishlarida, hukumatlararo munosabatla, shujumladan, harbiy va harbiy-taxnikaviy, samolyosozlik va gumanitar sohalarda amalga oshirilgan ishlar ko'lami keng bo'lidi. Buni biz mazkur davrda imzolangan shartnamalarning amalga oshirilishida va erishilgan yutuqlardan bilsak bo'ladi.

II bob. O'zaro hamkorlikning kengayishi va yanada rivojlanishi (2001-2011)

II.1 Xalqaro siyosiy va xavfsizlik masalaridagi yakdillik

2001-yil 3-5-mayda Rossiya diplomatiyasi amaliyotida sodir bo'lmagan voqealar yuz beradi. Vladimir Putin taklifi bilan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning so'nggi uch yil davomida Moskvaga ikkinchi tashrifi davlat tashrifi maqomi berildi. Odatda, davlat rahbari lavozimida bo'lgan muayyan shaxs o'zining rahbarlik faoliyatida aynan bir mamlakatga ikki marta davlat tashrifi bilan borishi va o'sha mamlakatda shunday maqomda qabul qilinishi mumkin emas edi. Lekin O'zbekiston prezidentiga shunday ehtirom ko'rsatilgan edi. O'shanda Kreml O'zbekistonga nisbatan ilk bor samimiy do'stona munosabatini namoyish etgan edi. Mamlakatimiz rahbari Moskvaga birinchi davlat tashrifi bilan 1998-yil may oyida bo'lgan edi. Bu paytda hali Putin siyosat maydonida tanilib kelayotgan, prezident ma'muriyatining yuqori martabali xodimlaridan biri edi.

1998-yilning iyul oyida u FSB (Federvl xavfsizlik xizmati) direktori etib tayinlangan. O'shandan boshlab Putin Rossiyaning janubiy chegaralaridagi xavfsizlik masalalari, shuningdek, Afg'oniston tufayli Markaziy Osiyo osha kelayotgan jiddiy tahdidlar bilan qat'iy shug'ullana boshlagan.⁴⁸

Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlikni saqlash ayni paytda eng dolzarb va muhim masalalardan biridir. Xavfsizlik borasida Rossiya bilan hamkorlikni kuchaytirish, ayniqsa uning harbiy-harbiy texnikaviy imkoniyatlaridan foydalanish O'zbekiston uchun juda muhimdir. Afg'oniston va Markaziy Osiyoda tinchlikni ta'minlashda O'zbekiston Rossiyaning harbiy, harbiy-texnikaviy hamkorligi har tomonlama mustahkamlanib borayotganiga asosiy sabab bir necha tarkibiy qismdan iborat bo'lgan ana shu tizimga qarshi kurash zaruratidir. Rossiya harbiylarimizga tunda ko'rish moslamalari, tog'li o'rmonli hududlarda jang qilish uchun texnikaviy vozitalar bilan ta'minlagan bo'lsa, O'zbekiston esa uning janubiy sarhadlariga kirishi mumkin bo'lgan xavfga to'siq bo'lmoqda.

⁴⁸ Юксак эҳтиром. //Халқ сўзи; 2001 йил, 5 май

Rossiya Xavfsizlik Kengashi kotibi Igor Ivanovning matbuotda bergan intervyusida shunday so'zlar bor: - Men tashqi ishlar vaziri bo'lib ishlagan besh yil mobaynida Rossiya – O'zbekiston munosabatlari bu qadar yaqin bo'lmagan edi. Bularning barchasida ikki mamlakat prezidentlari Vladimir Putin va Islom Karimovning hissalari katta – deb ta'kidlab o'tgan edi.

Muzokaralar yakunida hujjatlar imzolash marosimida Islom Karimov va Vladimir Putin O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi Prezidentlarining qo'shma bayonoti hamda chegara masalasi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi shartnomaga imzo chekdilar. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putinning Toshkentga tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida harbiy va harbiy texnikaviy sohalarda har tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risidagi shartnoma qabul qilingan edi. Ana shu hujjatning ratifikatsiya yorliqlarini almashish haqidagi protokol imzolandi.⁴⁹

2001-yil 19-sentyabr kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi Xavfsizlik kengashi kotibi Vladimir Rushayloni qabul qildi.⁵⁰ Uchrashuvda AQShda terrorchilik harakatlari sodir etilganidan so'ng dunyoda yuzaga kelgan vaziyat hamda Markaziy Osiyodagi mavjud holat yuzasidan fikr almashildi. Yurtboshimiz AQSh da yuz bergan fojea yuzasidan Xalqimiz bir tomondan Amerika ahliga hamdardlik bildirsa, ikkinchi tomondan, terrorchilar amalga oshirgan xunrezlikdan g'azabda ekanligini namoyon etmoqda- deb ta'kidlagan edilar.1999-yildayoq Islom Karimov YXHT minbaridan turib,"sovuq urushi"dan so'ng terrorchilik muammosi juda murakkablashib, XXI asrning eng xavfli tahdidlardan ham ustun turuvchi illatga aylanishi mumkinligi haqida katta tashvish bilan gapirgan edilar. O'shanda Islom Karimov BMT huzurida Xalqaro aksilterror markazini tuzish taklifini bergan edilar, Markazning maqsadlari belgilab berilgan, faqat qo'poruvchilik harakatlarining oldini olish,

⁴⁹ А.Бобоев. Ислон Каримовнинг Владимир Путин билан учрашув. //Халқ сўзи; 2001 йил, 5 май.

⁵⁰ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2001 йил, 20 сентябрь.

terrorchilikka qarshi kurashish emas, uni muvofiqlashtiruvchi va mablag' bilan ta'minlovchi tizimlarni yo'qotish lozimligini ham ta'kidlagan edilar.

2002-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Igor Ivanovni qabul qildi. Islom Karimov va tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov Igor Ivanov bilan uchrashib, O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida tashqi ishlar vazirliklarining yillik hamkorlik dasturi imzolandi.⁵¹

2003-yil 6-avgust kuni mamalakatimizga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin amaliy tashrif bilan keldi.⁵² Tashrif doirasida ikki mamalakat o'rtasida iqtisodiy masalalar xususan neft-gaz sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish xususida fikr almashildi. Tashrif doirasida ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy masalalar xususan neft-gaz sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish xususida fikr almashildi. 2003-yil 22-avgustda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga Oqsaroy qarorgohida Rossiya Federatsiyasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi etib tayinlangan Farit Muxametshinga ishonch yorlig'i topshirgandi.⁵³

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2004-yil 15-16-aprel kunlari amaliy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.⁵⁴ Mamlakatimiz rahbarining tashrifidan asosiy maqsad ikki tomonlama munosabatlarga doir qator dolzarb masalalarni Markaziy Osiyoda xavfsizlikni mustahkamlash hamda terrorchilik, ekstremizm, narkobiznes kabi xalqaro va mintaqaviy muamolar yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuvda Islom Karimov "Vladimir Putin Rossiya Prezidenti lavozimiga qayta saylanishi mamlakatda barqarorlik mustahkamligi va xalqning amaldagi siyosatiga ishonchi yuqori ekanidan dalolatdir"-deb ta'kidlagan edi.⁵⁵

⁵¹ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2002 йил, 10 январь.

⁵² Президентлар учрашуви. //Халқ сўзи; 2003 йил, 7 август.

⁵³ Ишонч ёрлиқлари топширилди. //Халқ сўзи; 2003 йил, 23 август.

⁵⁴ Улкан ўзгаришлар даври. //Халқ сўзи; 2004 йил, 17 апрель.

⁵⁵ Шу мақола. //Халқ сўзи; 2004 йил, 17 апрель.

Rossiya rahbari yaqinda yurtimizda sodir bo'lgan terrorchilik harakatlarini keskin qoraladi. Prezidentlar terrorchilikning har qanday ko'rinishiga qarshi murosasiz kurashish zarurligi, bu yo'ldagi say-harakatlar faqat mustahkam hamkorlikda, bahamjihat ish yuritilganda kutilgan samara berishini ta'kidladi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining strategik hamkorligini yaqin orada rasmiylashtirishga kelishib olindi. Uchrashuv doirasida Islom Karimov Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov bilan uchrashdi. Rossiya Sanoatchilari va ishbilarmonlari ittifoqi raisi Arkadiy Volskiyni hamda ITAR-TASS axborot agentligi bosh direktori Vitaliy Ignatenkolarni ham qabul qildi.

2004-yil 12-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroy qarorgohida Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri Sergey Ivanovni qabul qildi.⁵⁶ S.Ivanov Rossiya O'zbekistonni o'zining ishonchli hamkori deb bilishini ta'kidlagandi. O'zbekiston va Rossiyada ro'y bergan terrorchilik harakatlari bir-biriga bog'liq ekanligi, bu illatga qarshi kurashda hamkorlikni yanada kuchaytirish ikki tomonga mafaatlari mos kelishini takidlagandi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik, mintaqada xavfsizlikni taminlash va Afg'onistondagi vaziyatga oid masalalar yuzasidan fikr yuritildi.

S.Ivanov o'z tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri Qodir G'ulomov bilan O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sodiq Safoyevlar bilan uchrashib O'zbekiston – Rossiya hamkorligi, ikki tomonlama munosabatlarning istiqbollariga doir masalalar yuzasidan fikr almashdi.

2004-yil 3-iyun kuni mamalakatimizga Rossiya Federatsiyasi Xavfsizlik kengashi kotibi Igor Ivanovni tashrif buyurdi.⁵⁷ Igor Ivanov Shanxay hamkorlik tashkilotiga (ShHT) a'zo mamlakatlar xavfsizlik kengashi kotiblarining 4-iyun kuni Toshkentda o'tkaziladigan uchrashuvda qatnashish uchun kelgan edi.

⁵⁶ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2004 йил, 13 май.

⁵⁷ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2004 йил, 4 июнь.

O'zbekiston Respublikasi taklifi bilan ShHTning Toshkent sammitidan oldin iqtisodiyot va savdo vazirlarixavfsizlik kengashi kotiblarninguchrashuvlarini o'tkazishga kelishib olingandi.ShHT doirasidagi hamkorlikda ikki yonalish-xavfsizlik va iqtisodiy aloqalaralohida etibor berishni hisobga olganda bu uchrashuv muhim ahamyat kasb etdi.

2004 yil 16 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda ShHT sammitida qatnashish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashdi. Muzokaralar yakunida Prezidentlar O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasio'rtasida strategik hamkorlik to'g'risidagi shartnomaga imzo chekdilar.⁵⁸

Mazkur bitimning 1-moddasida: O'zaro xavfsizlikni ta'minlash, global tahdid va davlatlarga qarshi harakat qilish, mitaqaviy barqarorlikni mustahkamla, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan strategik sherikchilik O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi munosobatlarni uzoq muddatli va har tomonlama rivojlantirishning kuchli asosini shakllantiradi-deb yozilgan edi.⁵⁹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2005 yil 10 iyun kuni Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasining "Politika" jamg'armasi prezidenti Vyacheslav Nikonov rahbarligidagi delegasiya azolarini qabul qildi.⁶⁰ Delegasiya tarkibida Rossiya siyosiy tadqiqotlar insituti direktori Sergey Markov, "Politicheskij klass" jurnali bosh muharriri Vitaliy Tretyakov, "Trud" bosh muharririning o'rinbosari Rafayel Guseynov va Moskva shahri merining maslahatchisi Nurali Latipovlar ham kirganlar.

Delegasiya azolari Andijon shahrida bo'lib jamoatchilik vakillari bilan uchrashdilar. 2005 yil 13 may kuni sodir etilgan fojeali voqyealarning guvohlari va terrorchilar tomonidan garovga olinganlar, fojea qurbonlarning oila azolari bilan

⁵⁸ А.Бобоев. Ўзбекистон ва Россия-Стратегик ҳамкор. //Халқ сўзи, 2004 йил, 17 июнь.

⁵⁹ Ўзбекистон Республикаси билан Россия Федерацияси ўртасида стратегик шерикчилик тўғрисида Битим. //Халқ сўзи, 2004 йил, 22 июнь.

⁶⁰ Россия делегациясининг учрашувлари. //Халқ сўзи, 2005 йил, 11 июн ь

suhbatlashdilar. Delegasiya Toshkentda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining (SMTI) mutaxassislari bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurish akademiyasi professor o'qituvchilari bilan uchrashdilar. Delegasiya rahbari V.Nikonov "Bazi xorijiy ommaviy xorijiy ommaviy axborot vositalaridan Andijonda sodir bo'lgan fojeali voqyealar qurbonlari soniga oid raqamlar oshirilib yuborilgan",-deb takidlagan edi.⁶¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2005 yil 28-29 iyun kunilari Rossiya Federatsiyasi Prezidenti M.Vladimir Putinning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Moskva shahrida bo'ldi.⁶² Rossiya Federatsiyasi Prezidentining Novo-Ogaryova qarorgohida o'tgan muzokaralar savdo iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy madaniy, harbiy va harbiy-texnikaviy masalalari muhokamasiga bag'ishlandi. Tashrifning ikkinchi kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya mudofaa vaziri Sergey Ivanov bilan uchrashdi.

S.Ivanov bilan bo'lgan uchrashuvda O'zbekiston bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida harbiy va harbiy-texnikaviy aloqalar izchil rivojlanayotganligini shuningdek, bu yonalishdagi aloqalar Mharbiy mahsulotlar yetkazib berish harbiy texnikani yangilash, kadrlar tayyorlash, birgalikda mashqlar o'tkazish, koinotni tadqiq etish bo'yicha davlatlararo dasturlar tuzish kabi masalalarham muhokama etildi.

2005 yil 21 oktyabr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda mamalakatimizga tashrif buyurdi Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovni qabul qildi.⁶³ Uchrashuvda O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi o'zaro aloqalar, mamlakatlarimizning xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorligi bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. Shu kuni

⁶¹ Россия делегациясининг учрашувлари.//Халқ сўзи; 2005 йил, 11 июнь

⁶² А.Бобоев. Ўзаро ҳамкорлик янада мустаҳкамлаш йўлида. //Халқ сўзи; 2005 йил, 30 июнь.

⁶³ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2005 йил, 22 октябрь.

O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Elyor G'aniyev Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov bilan uchrashdi.

2005 yil 14 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasi bo'ldi. Muzokarlarda Islom Karimov va Vladimir Putin xalqaro tashkilotlar, jumladan, Yevroosiyo Iqtisodiy hamjamiyati va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi aloqalar bilan bog'liq masalalarni muhokama qildilar, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashdilar.

Muzokaralar yakunida Prezidentlar Islom Karimov va Vladimir Putin O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Shuningdek ikki mamlakat Savdo sanoat palatalari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan Rossiya Federatsiyasi Narkotik aylanishni nazorat qilish bo'yicha federal xizmati o'rtasida narkotik vositalarning, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamda prekursorlarni nazorat qilishda hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi.⁶⁴

Mamlakatimiz rahbari Rossiya Federatsiyasiga jo'nab ketishidan oldin ommaviy axborot vositalarga bergan intirvyusida imzolanishi rejalashtirilgan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma haqida to'xtalib :

"Avvalo bu shartnoma o'ta muhim va masuliyatli masala-ikki tomonlama yarbiy harbiy- texnikaviy aloqalarni yuqori va ishonchli asosda rivojlantirishni, qurolli Kuchlarni barpo etish,ularni qurollantirishda o'zaro ko'mak va yordam nazarga tutadi.O'zingiz bir tassavur qiling: bu shartnoma kuchga kishi bilan o'zbekistonga qarshi qaratilgan har qanday g'arazli va yovuz hamla bizning hududimizga bostirishga bo'gan urinishlar o'z-o'zidan Rossiyaga qarshi qo'l ko'tarish bo'lib hisoblanadi va, tabiiyki,dunyodagi eng qudratli davlatlardan biri bo'lmish bu mamlakatni befarq qoldirmaydi.Va bordiyu shunday holatlar sodir

⁶⁴ А.Бобоев.Ўзбекистон ва Россия иттифоқчи давлатлар. //Халқ сўзи; 2005 йил, 15 ноябрь.

bo'lsa, ikki davlat rahbariyati bamaslahat tegishli qaror qabul qilish va zarur choralar ko'rish imkoniga ega boladi"-deb takidladilar.⁶⁵

Rossiya Prezidenti V.Putin, o'z navbatida ta'kidlaganidek, "Shartnoma ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni mutlaqo yangi sifat darajasiga ko'taradi. Rossiya va O'zbekiston mintaqada barkd-rorlik va taraqqiyotga erishish yo'lida kuchlari, zaxiralari, ulkan gumanitar salohiyatlarini birlashtirmoqda"⁶⁶

Ushbu shartnoma ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning yangi sifat darajasiga ko'tardi Boshqacha aytganda, endilikda sho'rolar amaliyoti davridagidan tubdan farq qiladigan yangi falsafiy yondashuvga, jumladan, strategik istiqbolga ega umumiy man-faatlarning inobatga olinishiga asoslangan ittifoqchilik munosa-batlarining shakllanishi va rivojlanishiga imkon yaratdi.

So'ngi yillarda Rossiya - O'zbekiston munosabatlari ikki davlat rahbari Islom Karimov va Vladimir Putinning siyosiy irodasi va sa'y-harakatlari tufayli jadal va izchil rivojlanib bormokda. Bunday tendensiya nafaqat siyosiy muloqot, balki savdo-iqtisodiy, harbiy, harbiy-texnikaviy hamkorlik, gumanitar hamda madaniy sohalarida ham yaqqol namoyen bo'lmoqda.

Ma'lumki, ittifoqchilik shartnomasini tayyorlash bo'yicha amaliy faoliyat bir necha yil ilgari boshlanib, 1999 yilning 11 dekabrda harbiy va harbiy-texnikaviy sohada har tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risidagi Shartnoma hamda 2004 yilning iyunida imzolangan strategik sheriklik to'g'risidagi Shartnoma ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning yanada yaqinlashuvida muhim bosqich vazifasini o'tagan edi. Jumladan, strategik sheriklik to'g'risidagi Shartnomada global taxdidlar, birinchi galda, terrorizm, diniy ekstremizm kabi xavf-xatarlarni nazarda tutgan holda strategik sheriklikni amalga oshirish zarur ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, ushbu hujjatda harbiy hamkorlik to'g'risida ham batafsil so'z yuritiladi. Chunonchi, unda har ikki mamlakat yoki biri-ning manfaatlariga tahdid soladigan vaziyat vujudga kelgan taq-dirda, ularni bartaraf

⁶⁵ Ўзбекистон ва Россия иттифоқчи давлатлар. //Халқ сўзи; 2005 йил, 15 ноябрь.

⁶⁶ // "Народное слово; 2005 йил, 23 ноябрь.

etish chora-tadbirlari belgilab qo'yilgan. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston va Rossiya o'rtasida imzolangan mazkur ittifoqchilik shartnomasi ikki mustaqil davlat va xalqlarning o'zaro yaqinlashuvi jarayoniing mantiqiy bosqichidir.

Yangi shartnoma tufayli Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar tom ma'noda ittifoqchilik mazmuniga ega bo'lmoqda. Endilikda O'zbekistonga nisbatan agressiv xatti-xarakatlar dunyodagi eng qudratli davlatlardan biri - Rossiyaga karshi tajovuzni anglatadi. Masalan, ittifoqchilik haqidagi shartnomaning 2-bandida ta'kidlanishicha, "tarablardan biri qarshi muayyan davlat yoki davlatlar turuhi tomonidan sodir etilgan agressiya har ikki tomonga sodir etilgan tajovuz xisoblanadi". Ushbu hujjatda tinchlikka xavf solishi yoki tarablardan birining xavfsizligiga raxna qilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini kelishgan holda birgalikda amalga oshirish zarurligi haqidagi qoidalari g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

2005 yil noyabr oyining oxirida O'zbekiston Respublikasiga Rossiya Federatsiyasi Federal Yig'ini kengashining MDH masalalari bo'yicha qo'mita raisi V.Gustov boshchiligidagi delegasiya tashrif buyurdi.⁶⁷ Delegasiyaning bosh maqsadi Oliy majlis Senati va Federasiya Kengashi o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, shuningdek ikki tomonlama parlamentlararo munosabatlarning istiqbollari muhokama qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa,

2006 yil 13 fevralda mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi Federal majlisining Davlat dumasi raisi Boris Grizlov tashrif buyurdi.⁶⁸ Mamlakatimiz Prezidentining Boris Grizlov uchrashuvi chog'ida O'zbekiston-Rossiya munosabatlarning huquqiy asosini yanada mustahkamlash hamda mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lishi munosabati bilan ushbu tuzilma doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan shartnomaviy huquqiy jarayonlar bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. Rossiya Federatsiyasi Federal majlisining Davlat dumasi raisi B.Grizlov boshchiligidagi

⁶⁷ Н.Файзиёв.Келажакка интилган ҳамкорлик. //Халқ сўзи; 2005 йил, 3 декабрь.

⁶⁸ Ҳамкорликнинг ҳуқуқий асоси янада мустаҳкамланади. //Халқ сўзи; 2006 йил, 14 февраль

delegasiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi Spikeri Ye.Xalilov bilan ham uchrashdi.

2006 yil 16 mart kuni Rossiya Federatsiyasi Federal majlisi Davlat dumasining MDH ishlari bo'yicha qo'mita raisi A.Kokoshin rahbarligidagi delegasiya mamlakatimizga tashrif buyurdi.⁶⁹

A.Kokoshin tashrif doirasida Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlarda bo'ldi. Ushbu viloyatlar bilan Rossiya subyektlari o'rtasida savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi, sanoat sohalarda aloqalarni yanada kengaytirishga kelishib olingan edi.

2006 yil 10 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi Federal majlisi Federatsiyasi kengashi raisi Sergey Mironovni qabul qildi.⁷⁰ Suhbat asosiy mavzusi O'zbekiston -Rossiya parlamentlararo aloqalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. Rossiya Federatsiyasi Federal majlisi Federatsiyasi kengashi raisi Sergey Mironov boshchiligidagi delegasiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida bo'lib, Senat raisi Ilgizar Sobirov bilan uchrashdi. Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati bilan Rossiya Federatsiyasi Federal majlisi Federatsiyasi kengashi hamkorlikka oid bitim imzolangan. Bu Oliy Majlis Senati tarixida imzolangan ilk xalqaro hujjat bo'lgandi.

S.Mironov bitim haqida to'xtalib: "Mazkur bitim O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida qonunchilik borasidagi aloqalarni yanada kengaytirishda ulkan ahamiyat kasb etishi shubhasiz",⁷¹-deb ta'kidlagan edi.

2006 yil 12 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov amaliy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida bo'ldi.⁷² Mazkur uchrashuvda ikki tomonlama aloqalar, Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyatga doir masalalar yuzasidan fikr almashildi. 2005 yil noyabr oyida "O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi"

⁶⁹ Парламентда учрашув. //Халқ сўзи; 2006 йил, 17 март

⁷⁰ Хамкорлик изчил ривожланмоқда. //Халқ сўзи; 2006 йил, 11 апрель

⁷¹ Россия парламент делегациясининг учрашувлари. //Халқ сўзи; 2006 йил, 11 апрель

⁷² Президентлар учрушуви. //Халқ сўзи; 2006 йил, 13 май.

shartnomani imzolagan edilar. Islom Karimov 2006 yil 6 mart kuni "O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish" haqidagi O'zbekiston Respublikasi qonunini imzolagan bo'lsa, Sochi uchrashuvi arafasida Vladimir Putin bu hujjatning Rossiya tomonidan ratifikatsiya qilinishi to'g'risidagi qonunni imzoladi.

2006 yil 14-15 noyabr kunlari Samarqand shahrida "Demokratik institutlar rivojlanishi va jarayonlari ahvoli hamda istiqbollari: O'zbekiston va Rossiya tajribasi" mavzuidagi Xalqaro davra suhbatini bo'lib o'tdi.⁷³

Unda qatnashish uchun mamalakatimizga Rossiya strategik tadqiqotlar instituti direktori Y.M.Kojokin, Rossiya Jamoat palatasining Globalizm va milliy strategik rivojlanish masalalari bo'yicha komissiya raisi A.Migranyan, Siyosiy tadqiqotlar instituti direktori M.S.Markov, Yevropa forumi kordinatori M.Meyer, "Moskovskiy novosti" haftanomasi va "Noviy Politicheskij klass" jurnali bosh muharriri V.Tretyakov, "Ekspert" jurnali bosh muharriri A.Privalovlar tashrif buyurishgandi. Xalqaro davra suhbatini davomida O'zbekiston va Rossiya ekspertlari hamda tahlilchilarning "O'zbekiston va Rossiya fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishining ahvoli va istiqbollari", "demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish masalalari" kabi mavzular bo'yicha ochiq muloqot o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2006 yil 16 noyabrda Oqsaroyda Rossiyaning Samarali siyosat jamg'armasi prezidenti Gleb Pavlovskiy rahbarligidagi delegatsiya a'zolarini qabul qildi.⁷⁴ O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi keng qamrovli hamkorlik aloqalarining kelajagi, xususan, demokratlashtirish, siyosiy islohotlar jarayoni bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir masalalarga uchrashuvda alohida to'xtaldi.

⁷³ Ўзбекистон ва Россия сиёсатшунослар мулоқоти. //Халқ сўзи; 2006 йил, 14 ноябрь.

⁷⁴ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2006 йил, 17 ноябрь.

2007 yil 7 martda mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi hukumat raisi Mixail Fratkovni tashrif buyurdi.⁷⁵ Uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga doir masalalar yuzasidan fikr almashildi. Mixail Fratkov "mamlakatlarimiz Prezidentlari tomonidan imzolangan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma o'zaro hamkorligimizni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi",⁷⁶-deb takidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2007 yil 4 iyul Rossiya Federatsiyasi hukumati raisining birinchi o'rinbosari Sergey Ivanovni qabul qildi.⁷⁷ Uchrashuvning amaliy natijasi: O'zbekistonda Rossiya va Rossiyada O'zbekiston fuqarolarining mehnat faoliyati va ularning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi, noqonuniy migrasiyaga qarshi kurash borasidagi hamkorlik haqidagi, readmissiya to'g'risida bitimlar, shuningdek, Iordaniya buyurtmasi bo'yicha Il-76MF rusumli samolyotlarni yetkazib berishga doir shartnomalar imzolanishi bo'ldi.

2007 yil 29 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri Anatoliy Serdyukovni qabul qildi.⁷⁸ Mamlakatlarimiz o'rtasidagi harbiy hamkorlikka hamda mintaqaviy xavfsizlikka oid dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi. Tashrif davomida O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri Ruslan Mirzayev Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri Anatoliy Serdyukov bilan uchrashdi va muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi o'rtasida 2008 yilda hamkorlik rejasi imzolandi.

2008 yil 6 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Sankt-Peterburg shahrida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Dmitriy Medvedev bilan uchrashdi.⁷⁹ 2008 yil 5 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Moskva shahrida bo'lib o'tgan Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti

⁷⁵ Иттифоқчилик тамойили-амалда. //Халқ сўзи; 2007 йил, 8 март.

⁷⁶ А.Иванова,Н.Манзунова, И,Умарова, Ҳамкорлик барча сахаларда ривожланмоқда. //Тошкент оқшоми; 2007 йил, 8 март.

⁷⁷ Ишончли ҳамкорлиқнинг истиқлоли порлоқ. //Халқ сўзи; 2007 йил, 5 июль.

⁷⁸ Ҳарбий ҳамкорлик асоси-иттифоқчилик муносабатлари. //Халқ сўзи; 2007 йил, 30 октябрь.

⁷⁹ А.Бобоев. Ислон Каримов ва Дмитрий Медведев учрашуви. //Халқ сўзи; 2008 йил, 7 июнь.

(ODKB) sammitida ishtirok etdi.⁸⁰ Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotiga 1992 yilning 15 mayda imzolangan Kollektiv xavfsizlik shartnomaga binoan asos solingan. Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotining nizomi hamda tashkilotning huquqiy maqomi to'g'risidagi bitim 2002 yilning 7 oktabrda imzolangan va 2003 yilning 18 sentabrda kuchga kirgan. Mazkur tashkilot terrorizm va yekstremizmga, uyushgan transmilliy jinoyatchilik va narkotrafikka, qurol-yaroq kontrabandasiga ommaviy qirg'in quroliga qarshi kurash, tashkilotga azo mamlakatlar o'rtasida harbiy va harbiy hamkorlikni kengaytirib kelgan.

2009 yil 22 yanvar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Dmitriy Medvedev davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Uchrashuv davomida Prezidentlar O'zbekiston-Rossiya munosabatlarga doir keng ko'lamli masalalar, o'zlarini qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik muammolar yuzasidan atroflicha fikr almashildi.⁸¹

2009 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroy qarorgohida Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovni qabul qilgan bo'lsa,⁸² 23 dekabr kuni Oqsaroy qarorgohida Rossiya Federatsiyasining mamlakatimizdagi Favqulotda va muxtor elchisi etib tayinlangan Vladimir Tyurdenev Islom Karimovga ishonch yorlig'ini topshirdi.⁸³ Muloqot chog'ida ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir, shuningdek tomonlarni qiziqtirgan boshqa qator masalalar yuzasidan fikr almashilgandi.

⁸⁰ А.Бобоев. Хавфсизлик таъминлаш йўлидаги ҳамкорлик. //Халқ сўзи; 2008 йил, 6 сентябрь.

⁸¹ А.Бобоев. Ҳамкорлик уфқлари кенгаймоқда. //Халқ сўзи; 2009 йил, 24 январь.

⁸² Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2009 йил, 23 декабрь

⁸³ Ишонч ёрлиқлари топширилди. //Халқ сўзи; 2009 йил, 24 декабрь.

II.2 Davlatlarning iqtisodiy sohadagi hamkorliklari samarasi

Iqtisodiy hamkorlik davlatlarimiz o'rtasidagi bordi-keldi,oldi-sotdini rivojlantirishga qaratilgan,ammo, muhimi bugina emas. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti moliya,savdo-sotiq,mahsulot ishlab chiqarish tizimi, qaday yo'lga qo'yilgani, dunyodagi ilg'or davlatlar bilan qaydarajada sherikchilikka bog'liq. Shunday ekan,xorijiy davlatlar,jumladan Rossiya bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kuchaytirish nafaqat bugun,balki kelajak uchun ham zarur.

2001 yil 3-5 may kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ikkinchi davlat tashrifi bilan Rossiya Federatsiyasibo'lgandi. Tashrif doirasida iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya, o'zaro savdoda bilvosita soliq olish tamoyillari, kontrabanda va bojxona qonunbuzarligiga qarshi kurashda hamkorlik, bojxonaga oid hujjatlar va tartib qoidalarini o'zaro tan olish, bojxonadan o'tish tartibini yengillashtirish va soddalashtirish, madaniy sohada 2001-2003 yillarga mo'ljallangan hamkorlik to'g'risidagi hujjatlar qabul qilindi.⁸⁴

2001 yil mayda mamlakatimizga "Sibir bitimi" mintaqalalararo assosiasiyasi (MASS) delegasiyasi tashrif buyurdi⁸⁵. Delegasiya rahbarlarini O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O'tkir Sultonov qabul qildi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi va (MASS)ga kiruvchi hududlar o'rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari, mavjud muammolarni hal qilish yo'llari to'g'risida so'z yuritildi.

MASS ijroiya qo'mitasining raisi o'rinbosari Sergey Tixomirov delegasiyada 60 nafar azosi hamkorlik to'g'risidagi aniq takliflar bilan kelganini aytdi. Buning natijasi sifatida 2001 yil davomida Oltoy o'lkasi ma'muriyati rahbari Semyon Baykalov O'zbekistonga "Altaytrak" ochiq turdagi aksionerlik jamiyatida ishlab chiqarilgan mingta yer haydovchi traktor yetkazib berildi.Ular ekishdan oldin,yekish davrida va ekishdan so'ng ishlov berishga mo'ljallangan 31ta qishloq xo'jaligi uskunalariga ega modernizasiyalangan T 4A gusenisiali traktorlardir.

⁸⁴ А.Бобоев. Ислон Каримовнинг Владимир Путин билан учрашув. //Халқ сўзи; 2001 йил, 5 май.

⁸⁵ "Сибир битими" билан ҳамкор. //Халқ сўзи; 2001 йил, 30 май.

2001 yil 7 sentyabr kuni Oqsaroy qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasining poytaxti Moskva shahri meri Yuriy Lujkovni qabul qildi.⁸⁶ Rossiya poytaxtida "O'zDEUavto" qo'shma korxonasining "UzAVTO" hamda "O'zDEU markaz" deb nomlangan vakolatxonalarini ishlab tugandi. 2000 yilning o'zida ushbu vakolatxonalar orqali Asakadagi zavodda ishlab chiqilgan yengil avtomobillardan 5144 dona sotilgan edi. O'z navbatda, Moskva shahri korxonalari mamlakatimizga zamonaviy asbob uskunalar va yog'och mahsulotlarni yetkazib bermoqda. Uchrashuv doirasida ikki mamlakat o'rtasidagi ishbilarmonlarning hamkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. 2001 yil yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi o'zaro tovar ayriboshlash hajmi avvalgi yilning shu davriga nisbatan 15 foizga o'sib, 1 milliard 28,6 million AQSh dollarini tashkil etgandi.

2003 yil 26 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroy qarorgohida Rossiya Federatsiyasi hukumat raisining o'rinbosari Boris Alyoshinni qabul qilgandi.⁸⁷ Shu kuni Toshkentdagi Xalqaro biznes markazida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Ikki kun davom etgan komissiya yig'ilishiga O'zbekiston Respublikasi tomonidan O'.Sultonov va Rossiya Federatsiyasi tomonidan B.Alyoshin rahbarlik qildilar. Komissiya faoliyatida iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish doir masalalar ko'rib chiqilgan edi.

2003 yilning olti oyi mobaynida O'zbekiston-Rossiya o'rtasidagi savdo ayriboshlash hajmi 25,8 foizga o'sib 1 milliard 149 million AQSh dollarni tashkil etgan etgandi

O'zbekistonda Rossiya sarmoyasi ishtirokida 309 ta korxona faoliyat ko'rsatgan bo'lsa ularning 43 tasi yuz foiz rossiyaliklar mablag'iga

⁸⁶ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2001 йил, 8 сентябр.

⁸⁷ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2003 йил, 27 сентябрь.

tuzilgan, qolganlari esa qo'shma korxona hisoblangan, shuningdek mamalakatimizda Rossiyaning qirqqa yaqin firmasi o'z vakolat xonasini ochgan edi.⁸⁸ 2004 yilga iyun oyigacha bo'lgan davr mobaynida O'zbekistonda 328 ta korxona Rossiya sarmoyasi ishtirokida faoliyat olib borgan bo'lsa 45 tasi yuz foiz rossiya investisiyasi ishtirokida tuzilgan, 283 tasi qo'shma korxona edi.⁸⁹ 2004 yil oxirida ikki mamalakat o'rtasida qo'shma korxonalar soni 360 taga yetdi.⁹⁰

2004 yilda ikki mamlakat o'rtasida mahsulot ayirboshlash 2003 yilga nisbatan 42,9 foizga oshib, 1641,9 mln AQSh dollarini tashkil etdi.⁹¹ O'zbekistondan Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmi 57,8 foizga oshib, 724,8 mln AQSh dollarini tashkil etdi, Rossiyadan import esa 33,7 foizga ko'payib, 917,1 mln AQSh dollarini tashkil qildi.

2004 yilda savdodagi ijobiy savdo tufayli 2003 yildagi salbiy saldoni qariyb 38 mln AQSh dollari miqdorida qisqartirilishiga erishildi. 2004 yilda eksport tarkibi asosan xizmatlar (ko'proq energozaxiralarni, yo'lovchilarni tashish, temiryo'l orqali mahsulot tashish) 25,9 foizni yoki 187,5 mln AQSh dollarini, energozaxiralar - 17,7 foiz yoki 128,6 mln AQSh dollari, paxta tolasi - 10,1 foiz yoki 72,3 mln AQSh dollari, qayta ishlangan meva va yong'oq - 2,8 foiz yoki 20,4 mln AQSh dollari, qayta ishlangan sabzavot va boshqa o'simliklar - 2,1 foiz yoki 15,0 mln AQSh dollari, mato va jun mahsulotlar - 1,8 foiz yoki 13,1 mln AQSh dollari, elektr mashinalar va asbob-uskuna - 1,8 foiz yoki 12,7 mln AQSh dollari, g'axta va noto'qima materiallar - 1,6 yoki 11,2 mln AQSh dollarini tashkil etgan.

Import tarkibi esa quyidagicha bo'ldi: qora metall va ulardan ishlangan mahsulot - 24,6 yoki 225,8 mln AQSh dollari, mexanik asbob-uskuna — 13,7 yoki 125,8 mln AQSh dollari, yog'och va yogoch mahsulotlari - 9,8 foiz yoki 89,8 mln AQSh dollari, xiyumatlar — 6,2 foiz yoki 56,4 mln AQSh dollari, elektr mashina va asbob-uskuna — 6,0 foiz yoki 54,6 mln AQSh dollari, yerda yuradigan transport

⁸⁸ С.Раҳимов.Хукуматлараро қўшма комиссия мажлиси. //Халқ сўзи; 2003 йил, 27 сентябрь.

⁸⁹ Э.Беккулов, С.Дониёров. Келажак сари одимлар. //Халқ сўзи; 2004 йил, 16 июнь

⁹⁰ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2005 йил, 21 июнь

⁹¹ Россия ва тинчлик пойдевори “ Қишлоқ ҳаёти ” 2005 йил 18 ноябрь

vositalari - 4,9 foiz yoki 44,99 mln AQSh dollari, kauchuk va rezina mahsulotlari - 4,0 yoki 37,0 mln AQSh dollari, farmasevtika mahsulotlari - 3,9 foiz yoki 35,7 mln AQSh dollari, optik pribor va apparatlar - 3,1 foiz yoki 28,2 mln AQSh dollari, plastmassa va ulardan ishlab chikrshgan mahsulot -2,7 foiz yoki 25,0 mln AQSh dollarini tashkil etgan.

Uzaro savdodagi eksport va import tarkibi asosan mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat qilmaydigan mahsulotlardan tashkil topgan (odatda ichki bozorlarda talab yuqori bo'lgan avtomobillar bundan mustasno).

Yuqoridagilardan xulosa qilib, ikki tomonlama savdo istiqbolda savdo to'siklariga yo'l qo'ymaydigan o'zaro manfaatli asosda amalga oshirilayotganini qayd etish mumkin. Mamlakatimizda Rossiya sarmoyasining ishtirokida tashkil etilgan korxonalar hamda Rossiya kompaniya va firmalarining akkredetasiya qilingan vakolatxonalari soni ko'payib bormokda. Masalan, 2003 yilda Rossiya sarmoyasi ishtirokida mamlakatimizda 309 ta korxona faoliyat yuritgan bo'lsa, 2004 yilda ularni soni 390 taga yetgan. Ulardan 54 foizi Rossiya investisiyasi asosida faoliyat yuri-tadi, 295 tasi esa qo'shma korxonalardir.

Rossiya sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan korxonalarning nizom jamg'armasi 88,5 mln AQSh dollarini tashkil etgan. 2004 yil natijalariga ko'ra ushbu korxonalarning tashqi saddo ayirboshlash ko'rsatkichi 81,8 mln AQSh dollarini, 2005 yilning avgustiga qadar esa bu ko'rsatkich 76,5 mln AQSh dollarini tashkil qildi (ya'ni 2004 yilning shu davriga nisbatan o'sish 1,7 barobar ortiq bo'lgan). O'zbekiston mintaqalari nuqtai nazaridan olinadigan bo'lsa, faoliyat yuritayotgan korxonalar asosan Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon hamda Farg'ona viloyatlari ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur korxonapar faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagi sohalarni qamrab oladi: oziq-ovqat, tekstil, yog'ochni qayta ishlash, kimyo-farmasevtika, metallurgiya, mashinasozlik, avtomobilsozlik, yoqilg'i-energetika, qishloq xo'jaligi hamda O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa tarmoqlarida birgalikda mahsulot ishlab chiqarish, savdo vositachilik faoliyati.

Keyingi vaqtda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida kooperasiyani mustahkamlash jarayonlari ko'zga tashlanmoqsa. Ayni paytla bu sohada "Baltimor", "Cherkizovo" va boshqa mashhur Rossiya kompaniyalari bilan tashkil etilgan to'qqizta qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda. "Bim Bill Dan" kompaniyasi "Toshkentsut" birlashmasining 77 foiz aksiyasini sotib olish to'g'risidagi shart-nomani imzolab, sut mahsulotlari va meva sharbatini ishlab chiqarishga 20 mln AQSh dollari miqdorida investisiya kiritishni mo'ljallamoqda.

2004 yil oktabrda Moskva shahrida Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning yettinchi majlisi bo'lib o'tdi.⁹² Uni Rossiya tomonidan Sanoat bo'yicha federal agentlik rahbari Boris Alyoshin, O'zbekiston tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari O'tkir Sultonov boshqardi.

Bu uchrashuvi natijasida ikki tomonlama protokol imzolandi. Shuningdek, O'zbekiston Milliy Banki tomonidan "Osiyo invest bank"ka sarmoyaviy loyihalarni moliyalashtirish va O'zbekistondan Rossiyaga eksportni rag'batlantirish uchun 60 million dollar miqdorida kredit linyasi ochish to'g'risida, "O'zbekneftgaz" va "Lukoil Overseas Holding" kompaniyalari o'rtasida o'zbek konlarini o'zlashtirishda mahsulot taqsimoti to'g'risida bitimlar qabul qilindi.

2005 yil 11 oktyabrda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasining Sanoat bo'yicha federal agentlik rahbari Boris Alyoshinni qabul qildi.⁹³ Uchrashuvda O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi savdo iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. 2005 yil 2 dekabr kuni mamalakatimizga Rossiya Federatsiyasining "RUSAL" kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Oleg Deripaskani tashrif buyurdi.⁹⁴ "RUSAL" kompaniyasi 2000 yilda tashkil topgan bolib alyuminiy ishlab chiqarish bo'yicha jahondagi kuchli uchlikka kiruvchi

⁹² Hamkorlik chuqurlashtirish. //Xalq s'zi; 2004 yil, 5 oktyabr.

⁹³ Oqsaroyda qabul. //Xalq s'zi; 2005 yil, 12 oktyabr.

⁹⁴ Oqsaroyda qabul. //Xalq s'zi; 2005 yil, 3 dekabr.

yagona yagona xususiy sanoat majmuidir. Dunyoda ishlab chiqaradigan alyuminiyning o'n foizi "RUSAL" hissasiga to'g'ri keladi. kompaniya o'z faoliyati davomida 2004 yilgi malumotlarga ko'ra 12,7 million tonna alyumini oksidi 12,6 million tonna xomaki ishlov berilgan alyuminiy xomashyosini ishlab chiqargan. Tojikistonda faoliyat olib borayotgan alyuminiy zavodidan atmosferaga zaharli moddalar chiqariladi va mamalaktimizning janubiy viloyati, viloyati Surxandaryo aholisi ham shundan aziyat chekmoqda. Oleg Derepaska tashrif doirasida Surxandaryoda ham bo'lgandi. Uchrashuvda O'zbekiston korxonalari bilan "RUSAL" o'rtasidagi aloqalarga oid masalalar yuzasidan fikr almashilgandi.

Rossiya Federatsiyasida "O'zbekiston" savdo uyining ochilishi ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash yo'lidagi muqim qadam bo'ldi. 2005 yilning 19 dekabrda Toshkentda Rus Savdo uyining ochilishi marosimi bo'lib o'tdi. Uning asosiy faoliyati RF Sibir mintaqasining iqtisodiy salohiyatini O'zbe-kistondan keltirilayotgan mahsulotlar bilan o'zaro manfaatli jihatlarini namoyish etishdir

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2006 yil 6 may kuni Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi hukumat raisining birinchi o'rinbosari Dmitriy Medvedevni qabul qildi.⁹⁵ Tashrif davomida Rossiya Federatsiyasi hukumat raisining birinchi o'rinbosari Dmitriy Medvedev O'zbekiston Respublikasi bosh vazirining o'rinbosarlari Rustam Azimov va Ergash Shoismatov hamrohligida "V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviasiya ishlab chiqarish birlashmasi" davlat aksionerlik jamiyatida bo'ldi. Mazkur jamiyatning Il-76TD-90VB havo kemasi 2005 yil avgust oyida Moskva shahrida o'tkazilgan "MAKS-2005" aviashousida ishtirok etgandi. D. Medvedev korxona ayedromida Il-76TD-90VB havo kemasini Rossiyaning "Volga-Dneper" aviakompaniyasiga topshirish marosimida ishtirok etdi.

⁹⁵ Иттифоқчилик тамойили-амалда. //Халқ сўзи, 2006 йил, 10 май.

2006 yil iyun oyida Rossiya Federatsiyasi Tomsk viloyati gubernatori o'rinbosari A.Cherevko boshchiligidagi rossiyalik ishbilarmon doira vakillari delegatsiyasi O'zbekistonga kelishdi.⁹⁶ Tashrif doirasida O'zbekistonlik ishbilarmonlar hamda soha yetakchilari uchun Tomsk viloyati ko'rgazmasi tashkil etildi.

O'zaro tovar ayriboshlashga kelsak 2005 yil yakuniga ko'ra savdo hajmi 2 mlrd AKSh dollarini tashkil etgan edi. 2005 shu davrda O'zbekiston Respublikasining tovar aylanmasi 21,7 foizi Rossiya hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, shu mamlakatga eksport hajmi 41,6 foizga ko'paydi va 1026,5 million dollarga yetdi. Rossiyada import hajmi esa 12,7 foizga oshdi va 1034 million dollarni tashkil etdi.⁹⁷ 2006 yilda tovar ayriboshlash ko'rsatgichi 42 foizga o'sib 3 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi.⁹⁸

2007 yilda Rossiyalik sarmoyadorlar bilan hamkorlikda tashkil qilingan qo'shma korxonalar soni to'rt yuz yellikdan oshadi, Rossiyada esa O'zbekiston sarmoyasi bilan tuzilgan korxonalar 284 tani tashkil etgan.⁹⁹ 2007 yilda O'zbekistonda 132 ta Rossiya firma va kompaniyalari o'z vakolatxonalarini ochganlar. Jumladan, "Vim Bil-Dan-Toshkent (sut mahsulotlari), "Petromaruzgaz" (kimyoviy mahsulotlar), "Baltimor-Chelak" (konserva), "Elimpeks" (to'qimachilik) kabi korxonalar faoliyat olib bormoqda. 2007 yil 14 may kuni Toshkent shahridagi Xalqaro hamkorlik markazida O'zbekiston Rossiya biznes forumi bo'lib o'tdi.¹⁰⁰ Mazkur forumga ishtirok etgan Rossiya delegatsiya safida to'qsonga yaqin federal va mintaqaviy miqyosdagi firma va kompaniya vakillari ishtirok etishdi.

2007 yil 9-10 iyun kunlari Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasining Sankt Peterburg shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining norasmiy majlisi va XI Sankt Peterburg xalqaro iqtisodiy

⁹⁶ Ю.Ризайева. Савдо-иқтисодий алоқалар ривожланмоқда. //Халқ сўзи; 2006 йил, 16 июнь.

⁹⁷ Ғулوم Мирзо. Тинчлик ва барқарорлигимизнинг муҳим омили. //Халқ сўзи; 2006 йил, 12 май.

⁹⁸ Принципи союзничества- в действии. //Правда Востока; 2007 год, 7 март.

⁹⁹ А.Иванова, Н.Манзунова, И.Умарова, Ҳамкорлик барча саҳаларда ривожланмоқда. //Тошкент оқшоми; 2007 йил, 8 март.

¹⁰⁰ Ўзбекистон-Россия бизнес-форуми. //Халқ сўзи; 2007 йил, 15 май.

forumida ishtirok etdi.¹⁰¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Sankt Peterburg sammiti doirasida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashgan bo'lsa, 2007 yil 28 noyabr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi hukumati raisining birinchi o'rinbosari Sergey Ivanovni qabul qildi.¹⁰² Shu kuni Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Rossiya hukumatlararo komissiyaning o'ninchi majlisi bo'lib o'tdi. Hukumatlararo komissiya faoliyatiga bog'lanib 2007 yil dekabr Toshkentdagi "O'zbekspomarkaz"da O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi, Rossiya Federatsiyasi iqtisodiy rivojlanish va savdo vazirligi hamda ikki mamlakatning Savdo sanoat palatalari hamkorligida "Rossiya O'zbekiston: strategik hamkorlik" mavzuidagi Rossiya milliy ko'rgazmasi ham bo'lib o'tdi.

Komissiya va Rossiya milliy ko'rgazmasining yakunida: O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hukumatlari o'rtasida ikki tomonlama harbiy-texnikaviy hamkorlik doirasidan qabul qilinadigan va intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqni o'zaro muhofaza qilish to'g'risida bitim. O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan "Birlashgan aviasozlik korparasiyasi" ochiq aksionerlik jamiyati o'rtasida mazkur jamiyatning "V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviasiya ishlab chiqarish birlashmasi" davlat aksionerlik jamiyatining integrasiya mexanizmini muofiqlashtirish to'g'risida memorandum, Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Rossiya hukumatlararo komissiyaning o'ninchi majlisi yakunlari bo'yicha Protokollar imzolandi.¹⁰³

Toshkentda 2008 yil fevral oyida Rossiyaning blok-konteyner shaklidagi mamuriy inshootlar, yotoqxona va oshxonalarni loyihalash va qurish, neft-gaz, oltinqazish, shuningdek tog'-kon sanoati uchun yuqori texnologiyalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi yirik kompaniyalaridan biri "Ribinskkompleks"

¹⁰¹ А.Бобоев. Санкт-Петербург саммити. //Халқ сўзи; 2007 йил, 12 июнь.

¹⁰² Иттифоқчилик муносабати самарали ҳамкорлик омили. //Халқ сўзи; 2007 йил, 29 ноябрь.

¹⁰³ Н.Манзурова. Муносабатларнинг изчил ривож. //Халқ сўзи; 2007 йил, 29 ноябрь.

moliya sanoat kompaniyasi" yopiq aksionerlik jamiyatining taqdimot marosimi bo'lib o'tdi.¹⁰⁴ 2008 yil 5-6 fevral kunlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.¹⁰⁵ Mazkur tashrif O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi Prezidentlarining qo'shma bayonoti, O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi hukumati o'rtasida 2008-2012 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik dasturi hamda Aviasozlik sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi bilan Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vazirligi o'rtasida 2008 yilga mo'ljallangan hamkorlik dasturi imzolandi bilan ahamiyatlidir. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putin mazkur tashrif yuzasidan quyidagicha fikr bildirdi: "O'zaro tovar ayriboshlash ko'lamini tobora kengaytmoqda O'zbekistonga eksportning uchdan bir qismi, O'zbekistondan importning qariyb yarmini sanoat mahsulotlari tashkil etayotir. Biz O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi eng muhim strategik sheriklardan deb dlamiz".¹⁰⁶

2009 yil 14 yanvarda Moskva shahrida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning o'n birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.¹⁰⁷ Unga O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari Rustam Azimov va Rossiya hukumat rahbari o'rinbosari Sergey Ivanov rahbarlik qilishdi.

Ikki mamlakat o'rasidagi tovarayriboshlash hajmi 2008 yilda 4 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2009 yil yakunlariga kelib 4,5 milliard dollarga yetdi.

O'zbekiston eksportida sanoat mahsulotlarining ulushi, xususan, avtomobillarning ulushi (jami eksportning 28,6 foiz), O'zbekiston Rossiyga xizmatlar (26,3 foiz), meva va polis mahsulotlari (16,3), tabiiy gaz (11,3), to'qimachilik buyumlari (5,7), kimyo sanoati mahsulotlarini eksport qiladi.

¹⁰⁴ С.Хайдаров.Хамкорликнинг янги уфқлари. //Халқ сўзи; 2008 йил, 1 февраль.

¹⁰⁵ А.Бобоев.Хамкорликнинг янги уфқлари.//Халқ сўзи; 2008 йил, 7 февраль

¹⁰⁶ А.Бобоев.Хамкорликнинг янги уфқлари.//Халқ сўзи; 2008 йил, 7 февраль

¹⁰⁷Хукуматлараро комиссия йиғилиши. //Халқ сўзи; 2009 йил, 17 январь.

Rossiya esaasosan,uskunalar,yog'och,qora va rangli metallar import qiladi. 2009 yil boshida mamlakatimizda 786 ta O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi faoliyat olib borgan bo'lib, shularning uchdan bir qismi (252 tasi) keyingi ikki yilda tuzilgan.O'zbekistonda Rossiyaning 127 ta firma va kompaniyasi o'z vakolatxonalarini ochgan, Rossiyada o'zbekistonlik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda tuzilgan 349 ta qo'shma korxona faoliyat olib borgan. So'ngi uch yil davomida Rossiyadan O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan insamoyalarning 98 foizdan ortig'i yoqilg'i- energetika majmuyi va telekommunikasiya sohalariga to'g'ri keladi.¹⁰⁸

Hozirgi zamon, dunyoda vujudga kelgan vaziyat transport kommunikasiyalarini rivojlantirishni, mamlakatlar o'rtasida o'zaro muofiqlashtirilgan harakatlarni har tomonlama takomillashtirishni taqozo etmoqda. O'zbekiston va Rossiyaning geografik joylashuvi nafaqat siyosiy,balki iqtisodiy jihatdan ham muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamalakatlarimiz boshqa yo'nalishlar qatori temir yo'l sohasida ham faol hamkorlik qilmoqda.

O'zbekistonning Yevropaga chiqadigan asosiy yo'llari Rossiya hududidan o'tadi. Shu sababli mamlakatimiz istiqbolida temir yo'l transporti sohasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hukumat rahbarlari tomonidan 1992 yil temir yo'l transporti bo'yicha Kengash tuzilgan edi. 2000 yil mart oyida Kengashning Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan 26-yig'ilishida Boltiqbo'yi davlatlari ham qatnashgan.Yig'ilishda o'zaro hamkorlikning ijobiy samaralari va yechilishi kerak bo'lgan muammolar ko'rib chiqilgan. Qator muammolar hal etilgan. Shuningdek ,yig'ilishda davlatlarning strategik holatiga oid masalalar ham o'rta tashlangan edi.

Tranzit yuklarni tashishda,vagonlarni qurish va tamirlashda ham O'zbekiston-Rossiya temiryo'lchilari hamkorlik ko'lamini oshirmoqda.2004 yil 9 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda MDH

¹⁰⁸ А.Бобоев.Ҳамкорлик уфқлари кенгаймоқда. //Халқ сўзи; 2009 йил, 24 январь.

mamlakatlari temir yo'l transporti bo'yicha kengashning Toshkentda o'tgan 38-majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Rossiya Federasiyasining "Rossiya temir yo'llari" ochiq aksionerlik jamiyati prezidenti Gennadiy Fadeyevni qabul qilgandi.¹⁰⁹ Uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ko'lamini kengaytirishda temiryo'lchilarning ham hamkorligi muhim o'rin tutishi takidlandi. Bu borada yangi imkoniyatlarni topish va ishga solishga oid masalalar muhokama qilingandi.

2009 yil 27 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov MDH Temir yo'l transport bo'yicha Kengashi raisi, "Rossiya temir yo'llar" OAJ prezidenti Vladimir Yakuninni qabul qildi.¹¹⁰ Muloqot chog'ida O'zbekiston va MDH hamda Boltiq bo'yi davlatlari temir yo'l kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir masalalar yuzasidan fikr almashilgandi.

Yoqilgi-energetika majmui O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida izchil rivojlanib borayotgan savdo-iqtisodiy munosabatlarning eng muhim bo'g'ini tashkil etadi.

2002 yil 17 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroy qarorgohida Rossiyaning «Gazprom» ochiq turdagi aksiyanerlik jamiyati boshqaruv raisi Aleksey Millerni qabul qildi.¹¹¹ Suhbat chog'ida "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi bilan "Gazprom" ochiq turdagi aksiyanerlik jamiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mamlakatimiz gaz sanoatini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etishi takidlangandi. Bu borada istiqbolli qo'shma rejalar ishlab chiqish va ularni hayotga joriy qilish bilan bog'liq masalalar muhokama etildi.

"Gasprom" dunyodagi yirik kompaniyabiri hisoblanib jahondagi qazib olinayotgan tabiiy gazning 20, Rossiyaga esa 94 foiz ushbu kompaniya ulushiga to'g'ri keladi."Gazprom"ning muassisi Rossiya Federatsiyasi hukumati

¹⁰⁹ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2004 йил, 10 июнь.

¹¹⁰ Оқсаройда қабул.//Халқ сўзи; 2009 йил, 28 октябрь.

¹¹¹ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2002 йил, 18 декабрь.

hisoblanadi. Kompaniyaning 38,5 foiz aksiyasi davlatga tegishli. Shuningdek yarim milliondan ortiq jismoniy shaxs kompaniyaning aksioneridir. Mazkur kompaniya butun boshli texnologik jarayonni, o'nlab korxon va kompaniyalarni birlashtirgan. Shuningdek, "Gazprom" yeksport qilayotgan tabiiy gaz G'arbiy Yevropaning 33, Sharqiy Yevropaning 80 ehtiyojini taminlagan. "Gazprom" "O'zbekneftgaz" milliy holding kompaniyasi bilan ham anchadan biyon hamkorlikni yo'lga qo'yib kelmoqda. Mamlakatimizda gaz qazib olish, sotish hajmini oshirish, gaz transporti tizimini rivojlantirish, ushbu sohagasarmoya jalb qilish, shuningdek, O'zbekistonning gaz sanoati sahasida kechayotgan xususiy lashtirish jarayonida "Gazprom" ning faol ishtiroki ana shunday hamkorlik sirasiga kiradi.

2003 yil 22 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroy qarorgohida Rossiyaning «Gazprom» ochiq turdagi aksiyanerlik jamiyati boshqaruv raisi Aleksey Millerni qabul qildi. 2002 yil dekabrda "O'zbekneftgaz" milliy holding kompaniyasi bilan "Gazprom" o'rtasida "Gaz sohasida strategik hamkorlik to'g'risidagi bitim" imzolangan edi. Shu kelishuv doirasida 2003 yil may oyidan O'zbekiston tabiiy gazining eksporti boshlangandi. Mazkur uchrashuvda Islom Karimov "Ushbu hujjat "Gazprom" bilan yangicha munosabatlarimizga tamal toshini qo'ydi", - deb takidlagan edi.

2004 yilning 14 aprelida "O'zbekneftgaz" milliy holding kompaniyasi bilan "Gazprom" ga qarashli "Zarubejneftgaz" yopiq aksionerlik jamiyati o'rtasida Shahpaxta konini o'zlashtirishning yakuniga yakuniga yetkazish loyihasi bo'yicha Mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitimga imzo chekildi. 2004 yilning ikkinchi yarmida kondan gaz olish qayta yo'lga qo'yildi, kompressor stansiyalarning qurilishi va infratuzilmani yangilash ishlari tugallandi. Buning natijasida 2004 yilda 200 millin kub metr gaz qazib olindi.

2003 yilning sentabrdan 2004 yilning iyuligacha bo'lgan mudatda "Gazprom o'quv markazida 9000 nafar o'zbekistonlik mutaxassislar malaka oshirilishi kelishib olindi."¹¹²

2004 yil 24 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasining «Gazprom» ochiq turdagi aksiyanerlik jamiyati prezidenti Vagit Alekperovni qabul qildi va hamkorlikda amalga oshirilajak yangi loyihalar yuzasidan ham fikr almashildi.¹¹³

2005 yil 26 sentyabr mamalakatimizga Rossiyaning "Gazprom" ochiq turdagi aksiyanerlik jamiyati boshqaruv raisi Aleksey Millerni tashrif burdi.¹¹⁴ Uchrashuvda "O'zbekneftgaz" bilan "Gazprom" o'rtasidagi hamkorlik O'zbekiston gaz sanoatini rivojlantirishda muhim o'rin tutayotgani ta'kidlandi va gazning 2006 yildagi narxi va eksport hajmi,ustyurt mintaqasidagi konlarni topish va konlarnigeologik-qidiruv ishlarni olib boorish yuzasidan Mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitimning ijrosi va gaz tranziti kabi masalalar yuzasidan kelishib olindi. 2006 yil 20 yanvar kunidagi Aleksey Millerni mamalakatimizga navbatdagi tashrifida esa "O'zbekneftgaz" bilan "Gazprom" o'rtasidagi hamkorlik O'zbekiston gaz sanoatini rivojlantirishda muhim o'rin tutayotgani ta'kidlanib, yangi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga oid masalalar yuzasidan fikr almashildi.Aleksey Miller mamalakatimizga 2006 yil 7 dekabrda ham bo'ldi.

Ikki mamalakat o'rtasida 2002 yil dekabrda "Gaz sohasida strategik hamkorlik to'g'risidagi bitim"imzolangan edi. U 2012 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston gazini xarid qilish,yurtimizdagi gaz konlarini o'zlashtirishda ishtirok etish.Markaziy Osiyo gazini mamlakatimiz hududi orqali tashishni nazarga tutadi. Shoxpaxta konini o'zlashtirishni yakuniga yetkazish loyihasi bo'yicha Mahsulot taqsimoti to'g'risida bitimga imzo chekilgan edi.15 yilga mo'ljallangan bu hujjatga

¹¹²Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2003 йил, 23 июль .

¹¹³Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2004 йил, 25 ноябрь.

¹¹⁴ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2005 йил, 27 сентябрь.

binoan, 2 007 yilgacha anashu maqsadlarda 15 million AQSh dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri sarmoya yo'naltirilgandi.

2004 yilning ikkinchi yarmidan boshlab kondan gaz olish qayta yo'ga qo'yildi. Natijada 2004 yilda 200 million, 2005 yilda qariyb 500 kub metr gaz qazib olingan bo'lsa, O'zbekistondan Rossiyaga 2004 yilda 7,114 milliard, 2005 yilda 8,15 milliard, 2006 yilda 10 milliard kub metr gaz eksport qilindi.¹¹⁵

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2001 yil 4 iyun kuni Oqsaroy qarorgohida Rossiyaning "LUKOYL" neft kompaniyasi rahbari Vagit Alekperovni qabul qildi.¹¹⁶ Mamalakatimiz rahbari bilan uchrashuvidan oldin Vagit Alekperov jurnalistlarga bergan intervyusida O'zbekistonda neft va gaz ishlab chiqarish borasida xorijiy kompaniyalarga katta imtiyozlar berayotganini takidlagan edi

Uchrashuvda O'zbekistondagi neft va gaz konlarini tadqiq etish va o'zlashtirish borasida "LUKOYL" bilan hamkorlik istiqbollari, o'zaro aloqalarning asosiy tamoyillari va shakllari xususida, shuningdek, O'zbekiston neft-gaz sanoatini zarur asbob-uskunalar bilan borasida hamkorlik imkoniyatlari, katta konlarda neft qazib olish, yangi neft va gaz konlarni topish bo'yicha geologik qidiruv, "O'zbekneftgaz" milliy aksionerlik kompaniyasini xususiylashtirish bo'yicha loyihalarda o'zaro hamkorlik bilan bog'liq masalar yuzasidan fikr almashilgandi.

Bu kompaniya 1991 yil 25 noyabr G'arbiy Sibirdagi "Langenasneftgaz", "Uralneftgaz", "Kogolimneftgaz" korxonalarining birlashuvi natijasida tashkil etilgandi. Bugun dunyodagi obro'yli neft kompaniyalardan biri hisoblanadi. Kompaniya 2001 yilgi malumotlarga ko'ra Rossiya Federasiyasining 40 mintaqasida, dunyoning 25 mamalakatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Rossiyada qazib olinayotgan neftning 24 foizi, ishlab chiqarilayotgan umumiy neft mahsulotlarning 12 foizi "Lukoil" hissasiga to'g'ri keladi.

¹¹⁵ Hamkorlik kўлами кенгаймоқда. //Халқ сўзи; 2006 йил, 8 декабрь.

¹¹⁶ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2001 йил, 5 июн.

2004 yil 16 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari O'tkir Sultonov va "Lukoil neft kompaniyasi" ochiq aksiyadorlik jamiyati prezidenti Vagit Alekperov O'zbekiston Respublikasi bilan "Lukoil neft kompaniyasi" OAJ hamda "O'zbek neftgaz" milliy xolding kompaniyalari tarkibidagi sarmoyadorlar konsorsumi o'rtasidagi mahsulot taqsimotiga oid bitimni imzoladilar. Bitim O'zbekiston neft-gaz tarmog'iga "Lukoil" tomonidan bir milliard AQSh dollari miqdorida kiritilishini ko'zga tutgan edi. Kelishuvga binoan, birgalikda neft konlari razvetka qilinishi, o'zlashtirilishi va "Lukoil" texnika vositalari taminoti bilan shug'ullanishi kelishib olingandi.

2006 yil 16 may kuni Toshkentda "Lukoil Overseas Uzbekistan Ltd" ofisi binosi poydevoriga dastlabki tosh qo'yish marosimi bo'lib o'tdi. Mamlakatimizda Mahsulotni taqsimlashga oid bitimga binoan, qadim gaz konlarni o'zlashtirish uchun "Lukoil Uzbekistan Operating Company" operatsiya kompaniyasi tashkil etildi. Yangi tuzilma O'zbekistonning janubi-g'arbidagi Qadim gaz konlarini o'zlashtirish bo'yicha qiymati qariyb bir milliard AQSh dollariga teng loyiha ijrosi bilan shug'ullanadi. Tomonlar loyihani amalga oshirish uchun investitsiya konsorsiumi tashkil etildi.

Unda Rossiya kompaniyasining ulushi 90 foiz, O'zbekiston tomonining ulushi esa 10 foizdan iborat. 35 yilga mo'ljallangan bitim shartnomaga ko'ra Rossiya kompaniyasi birlamchi bosqichda qazib olingan mahsulotning 49,8 foiziga egalik qiladi, O'zbekistonning ulushi esa 50,2 foizni tashkil etgan. Ushbu konda tabiiy gazni sanoat yo'li bilan qazib olish 2007 yildan boshlanishi rejalashtirildi.¹¹⁷ 2007 yil noyabr "Lukoil" kompaniyasi bilan Buxoro viloyati hududidagi "Xavzak" konini o'zlashtirishni yo'lga qo'yish borasida hamkorlikni amalga oshirmoqda.¹¹⁸

2008 yil aprel oyining oxirlarida Toshkentda "LUKOIL" ochiq aksionerlik jamiyati (Rossiya) Direktorlar kengashining sayyor majlisi bo'lib

¹¹⁷ В.Николаев, Н.Ўлжабоев. Ҳамкорлигимиз самараси. //Халқ сўзи; 2006 йил, 17 май.

¹¹⁸ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2008 йил, 26 ноябрь.

o'tdi.¹¹⁹ Unda qator vazirliklar va idoralar, "O'zbekneftgaz" Milliy xolding kompaniyasi rahbarlari ishtirok etdilar. "Lukoil" kompaniyasi Qandim-Xauzak-Shodi-Qo'ng'iro't yo'nalishidan tashqari yana bir yirik va mutlaqo Myangi "Orol" loyihasini amalga oshirish, yani Orol dengizining O'zbekistondagi qismiga Mahsulotni taqsimlash bitimi asosida uglerod konlarini qidirish hamda o'zlashtirishda ishtirok etmoqda. Orol dengizi akvatiriyasida geologik qidiruv ishlarini o'tkazish bo'yicha loyihani amalga oshirish 2006 yilning 30 sentabrda boshlangan edi. Buning uchun investorlar xalqaro konsorsiumi tashkil etildi. Mamlakatimizda "Lukoil" kompaniyasining investisiya fondi 2015 yilda 5,5 milliard AQSh dollarni tashkil etishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2009 yil 21 yanvar kuni "LUKOYL" OAJ prezidenti Vagit Alekperovni qabul qildi.¹²⁰ Muloqot chog'ida O'zbekiston kompaniyalari bilan "LUKOYL" o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir masalalar, muhokama qilindi, qo'shma loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

¹¹⁹ В.Николаев. Кулай инвестиция муҳити-самарали ҳамкорлик омили. //Халқ сўзи; 2008 йил, 25 апрель.

¹²⁰ Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2009 йил, 22 январь.

II.3 Madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi va rivojlanishi.

O'zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi bilan ijtimoiy, gumanitar sohalarida ham yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Fan-talim, tibbiyot, madaniyat va sanat, turli boshqa yo'nalishlarda aloqalar faollashmoqda. Talim, kadrlar tayorlash sohasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikka kelsak, bugungi kunda Rossiyaning iqtisodiyot, servis, boshqaruv, lingvistika, pedagogika, qishloq xo'jaligi, informatika sohalarida mutaxassislar tayyorlaydigan o'nlab oliy o'quv yurtlari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Islom Karimov Rossiya Federatsiyasidagi bir necha nufuzli ilm maskanlarining faxriy azosi bo'lgan, mukofot va unvonlar bilan taqdirlangan 2001 yil may oyidagi tashrif doirasida esa Moskva davlat universiteti (MDU) ning ham faxriy professoridir Bu oily o'quv yurtga shrifi chog'ida Universitet Rektori Viktor Sodovnichni va boshqa murabbiylar O'zbekistondagi talim sohasida yuz berayotgan o'zgarishlardan hayratga tushganini aytgandilar.V.Sodovnichni talim sohasiga biror davlat rahbari Islom Karimovchalik etibor bermagani bejiz emasdir.Har auditoriyasiga bir daqiqadan kirib chiqish uchun 80 yil talab etiladigan MDU O'zbekiston oliy va o'rta maxsus talim vazirligi va Milliy Universitetimiz bilan hamkorlik qilib keladi.

2001 yil may oyida Rossiya Davlat teleradio kompaniyasi sobiq ittifoq parchalangandan so'ng yuzaga kelgan mustaqil davlatlarning bugungi kuni va istiqboli masalalariga bag'ishangan 15 qismdan iborat hujjatli-publitsistik filmni suratga olishni boshlab yuborgan edilar maskur film ijodkorlarini Islom Karimov Oqasaroy qarorgohida qabul qildi. Islom Karimov mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng qisqa davr mobaynida mamalakatimiz erishgan yutuqlariva imkoniyatlari haqida fikr bildirdi.

2002 yil 9 yanvar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqasaroyda Rossiya Federatsiyasitashqi ishlar vaziri Igor Ivanovni qabul qildi. Islom Karimov va tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov Igor Ivanov bilan uchrashib, O'zbekiston Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan Moskva

davlat xalqaro munosabatlar instituti (Universitet) o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi.¹²¹

O'zbekiston va Rossiya tashqi ishlar vazirliklari yaqin hamkorlikda ishlab, o'zaro siyosiy munosabatlarni xalqarosiyosat maydonidagi hamjihatligini muofiqlashtirib kelmoqda. Endilikda mazkur uchrashuvdan so'ng ikki mamalakat o'rtasida kadrlar almashish, birgalikda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish imkoniyatlari tug'ildi. Mazkur universitetlarning ikkalasi ham o'zi joylashgan mamalakatdagi tashqi siyosat mahkamasiga qarashli bo'lib, asosan xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislar tayorlaydi.

2003 yil 15 may kunni Oqsaroyda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasining "Andrey Pervozvaniy" jamg'armasi Vasiylik kengashi raisi Vladimir Yakunin rahbarligidagi delegasiya azolarini qabul qildi.¹²²

Bu jamg'arma davlat, hukumat, din va siyosatdan holi bo'lib o'z oldiga qo'ygan bosh maqsadi manaviy va madaniy qadriyatlarni tiklash, saqlash va boyitish hamda inson qalbida o'z xalqining tarixi va madaniyati bilan uzviy bog'liq manaviy asoslarni mustahkamlashni targ'ib etish va rag'batlantirishdan iborat. Jamg'arma Rossiyaning qadim "Anrey Pervozvanniy" ordenini qayta qayta tasis etgan va zikr etilgan sohalarda beqiyos xizmat ko'rsatgan shaxslarga uni taqdim etadi. Xalqaro miqyosda bunday xayrli ishlarga katta hissa qo'shgan shaxslargamazkur ordenmaxsus tasis etilgan "Sivilizasiyalar muloqoti" xalqaro mukofoti tarzida beriladi. Unga YuNESKO bosh direktori Kouchiro Masuura, Mahmud Hotamiy kabi arboblardan saozovor bo'lganlar. Ushbu orden Rossiya Federatsiyasining davlat mukofoti maqomiga ega.

Uchrashuv chog'ida Vladimir Yakunin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga "Andrey Pervozvaniy" ordenini tantanali ravishda taqdim qildi. Mamlakatimiz rahbariga mazkur ordenning topshirilishi yurtboshimizning

¹²¹ Oqsaroyda qabul. //Xalq s'zi; 2002 yil, 10 yanvar.

¹²² Oqsaroyda qabul. //Xalq s'zi; 2003 yil, 16 may.

sivilizasiyalararo muloqot rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissi, xalqlar o'rtasida tinchlik vahamfirklikni rivojlantirish borasida yuritilayotgan izchil siyosatining yorqin isboti edi.

Mamlakatimiz rahbariga mazkur ordenning topshirilishi yurtboshimizning sivilizasiyalararo muloqot rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissi, xalqlar o'rtasida tinchlik va hamfirklikni rivojlantirish borasida yuritilayotgan izchil siyosatining yorqin isboti edi.

2004 yil 11 mart O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiyaning Moskvadagi A.Bakulev nomli Yurak qon tomir jarrohligi ilmiy markazi derektori Leo Bokeriyani qabul qildi. Suhbat chog'ida O'zbekiston va Rossiyaning jarrohlik sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislari o'rtasida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr yuritildi.¹²³ Leo Bokeriya 10 mart kuni akademik V.Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya markazida mehribonlik uyining tarbiyalanuvchisi bo'lgan, tug'ma yurak xastaligiga chalingan ikki bolaning o'ta murakab jarrohlik operatsiyasidan boshlagandi.

Har bir mamalakatning taraqqiyot darajasini, xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini belgilashdi undagi tinchlik, osoyishtalik va fuqarolararo totuvlikning nechog'lik mustahkam ekani asosiy mezonlardan hisoblanadi. Shu manoda Vatanimizning eng yuksak qatriyati-jamiyatimizdagi tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikning barqarorligidir. 2004 yil 6 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasidagi Rus madaniyat markazining 10 yilligiga bog'ishlangan tantanali yig'ilish qatnashchilariga yo'llagan tabrigi matbuotda elon qilingandi.¹²⁴

2004 yilda nafaqat Rossiya, balki butun dunyoda yetakchi mavqyega ega bo'lgan bilim dargohlardan biri-M.B.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat

¹²³Оқсаройда қабул. //Халқ сўзи; 2004 йил, 12 март.

¹²⁴ Ўзбекистон Республикаси Рус маданият марказининг 10 йиллигига боғишланган тантанали йиғилиш қатнашчиларга. //Халқ сўзи; 2004 йил, 6 ноябрь.

universiteti o'zining 250 yillik yubeleyini Rossiya Prezidenti farmoni hamda YuNESKO qarori bilan keng miqyosda nishonlandi. Yubeley bahonasida universitetni turli davrlarda bitirib, hozir butun dunyoda mashhur insonlarga aylangan sobiq bitiruvchilar bir joyga to'plandilar, O'zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etdi.

Delegatsiya tarkibida MDUda Oliy talim iqtisodiyoti, investitsiya va marketing sohasida doktortlik dissertatsiyasini himoya qilgan iqtisodiyotfanlar doktori Muhammad Ali Saidovning bergan malumoticha: delegatsiya o'n nafar olimdan tashkil etilgan bo'lib, ular orasida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti rektori, professor R. Ashurov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, akademik S. G'ulomov Qoraqalpog'iston davlat universiteti rektori K. Utiniyazov, Qarshi davlat universiteti rektori G. Xudoyberganov, akademik O. Salimov, professor Sh. Alimovlar bor edi.¹²⁵

2004 yil iyunda ikki mamlakat o'rtasida Strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolangan edi.

Mazkur bitimning 12 moddasida "Tomonlar ilmiy, madaniy, ijodiy, jamoat tashkilotlari va uyushmalari o'rtasida aloqa va almashuvlarni o'rnatish hamda qo'llab-quvvatlash, ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlarda qo'shma dastur va tadbirlarni amalga oshirish orqali gumanitar sohadagi hamkorlikni rivojlantiradilar. Tomonlar milliy ta'lim va fan tizimlarining yaqinlashuvini har tomonlama rag'batlantiradilar. Ular o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha konsruktorlik muassasalari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni o'rnatishga, ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda akademik hamda amaliy xarakterga ega bo'lgan qo'shma tadqiqotlarni amalga oshirishga ko'maklashadilar.

Tomonlar professional kadrlarni tayyorlash sohasida hamkorlik uchun qulay sharoitlar yaratadilar. Ular olim va mutaxassislar, oliy va o'rta maxsus o'quv

¹²⁵ Россиянинг бош университети. //Халқ сўзи; 2004 йил, 23 декабрь.

muassasalarining professor-o'qituvchi tarkibi vakillari aspirantlar, stajyor va talabalarning muntazam almashinuvini amalga oshiradilar¹²⁶-deb belgilangan edi.

2006 yil aprel oyida Toshkentdagi "O'zekspomarkazi" ning markaziy pavilyonida "Rossiyaning zamonaviy ta'limi" ko'rgazmasining taqdimoti tashkil etildi.¹²⁷ Ko'rgazmaning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir o'rinbosari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri R.Qosimov ishtirok etdi. Ko'rgazmada Rossiyaning 15 ta yetakchi oliy o'quv yurtlari xususan ko'rgazmaga Rossiya Davlat boshqaruv universiteti, Volgograd davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, Sankt-Peterburg davlat politexnika universiteti, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi kabi oliy o'quv yurtlarning faoliyatiga bag'ishlangan bo'limlardan tashkil etildi. 2005-2006 o'quv yilida ham yurtlarimizning Rossiya Oliy o'quv yurtlarida magistratura, aspirantura va boshqa talim muassasalarida tahsil olishlari uchun davlat liniyalari bo'yicha 140 ta stipendiya ajratilgan. 2006 yil sentabr oyidan boshlab yurtimizdagi oliy o'quv yurtlar yana birtaga ko'paydi. Mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasining Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent filiali faoliyatining boshlanishi ittifoqchilik munosabatlarining amaldagi yana bir yorqin ifodasi bo'lgandi.

2006 yil dekabrda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Toshkent shaxrida " I.N.Gubkin " nomidagi Rossiya Davlat Neft va Gaz universiteti filiali faoliyatini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi.

Mamlakatimizda bunday oliy o'quv yurtlarining filiallarining ochilishida ko'plab mas'ul shaxslar ham jonbozlik ko'rsatayotganligini takidlash joyiz. Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimov 2006 yil 12 dekabr kuni Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasining Prezidentining yordamchisi Jaxon Polliyeva rahbarligidagi delegasiya a'zolarini qabul qildi. Mazkur uchrashuvda Prezidentimiz O'zbekiston

¹²⁶ Ўзбекистон Республикаси билан Россия Федерацияси ўртасида стратегик шерикчилик тўғрисида Битим. //Халқ сўзи; 2004 йил, 22 июнь.

¹²⁷ А.Иванова. Ўзбекистон-Россия Таълим сихасидаги ҳамкорлик. //Халқ сўзи; 2006 йил, 20 апрель.

va Rossiya o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishiga qo'shgan xissasi uchun Jaxon Polliyevaga "Do'stlik" ordeni, Moskva Davlat Universiteti rektori Viktor Savdovnichiyga "Fidokorona xizmati uchun" ordeni topshirdi J.Poliyeva va S.Sadovich yuksak e'tibor va samimiy qabul uchun davlatimiz raxbariga minnadorchilik bildirdi.¹²⁸

Toshkentda 2006 yil dekabr oyida "Fotosuratlar uyi"da O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Rossiya Federatsiyasining mamlakatimizdagi elchixonasi tomonidan "Strategik hamkorlik harakati" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.¹²⁹ Bu ko'rgazmada ikki mamalakat o'rtasidagi hamkorlikda erishilgan loyihalarning amaliy natijalarning aks etganligi bilan arjilib turgandi. 2007 yil 12 yanvarda Toshkent shahrida I.M.Gupkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiali faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilindi.¹³⁰ Bu mamalakatimizda neft-gaz sohasida kadrlarni yetishtirib berishni ta'minladi. Bu sohadagi ikki mamlakat hamkorligining yanada rivojlanishidan dalolat beradi.

2007 yil 29 yanvar kuni esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasining mamlakatimizdagi Favqulotda va muxtor elchisi Farit Muxametshinni qabul qildi.

Prezident Islom Karimov O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida munosabatlarni mustahkamlash, xalqlarimiz o'rtasidagi ilmiy, madaniy va gumanitar hamkorlikni kengaytirish yo'lida xizmatlari uchun Rossiya Federatsiyasining mamlakatimizdagi Favqulotda va muxtor elchisi Farit Muhameshinga Vatanimizning "Do'stlik" ordenini topshirdi.¹³¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2007 yil 2 noyabr kuni Rossiya Federatsiyasi hukumat raisi Viktor Zubkovni qabul qildi.¹³² Tashrif

¹²⁸ Hamkorlikning muhim sohasi. //Xalq s'zi; 2006 yil, 13 dekabr.

¹²⁹ Q.Хидиров ҳамкорлиқодаси. //Халқ сўзи; 2006 йил, 29 декабрь.

¹³⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори. //Халқ сўзи; 2007 йил, 13 январь.

¹³¹ Иттифоқчилик тамойили-амалда. //Халқ сўзи; 2007 йил, 30 январь.

¹³² Иттифоқчилик муносабати амалда. //Халқ сўзи; 2007 йил, 3 ноябрь.

davomida Rossiya Federatsiyasi hukumat raisi Viktor Zubkov O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, oliy va o'rta maxsus talim vaziri Rustam Qosimov hamrohligida M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent filialida bo'ldilar.

Bu kabi tashriflar ikki tomonlama ma'daniy, ilmiy aloqalarning izchil sur'atda rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2008 yil 22 fevral Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Moskva shahrida o'tgan norasmiy sammitida ishtirok etdi.¹³³ Tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinga mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga, xalqlarimizning do'stligini mustahkamlashga qo'shgan hissasi uchun Vatanimizning yuksak mukofoti "Buyuk xizmatlari uchun" ordenini topshirdi.

Mamlakatimizda 2009 yilgi malumotlariga ko'ra:785 ta rus tilida talim beruvchi maktab faoliyat olib borgan bo'lsa, shundan 128 tasida to'liq ushbu tilda o'qitish ixtisoslashgan. Yurtimizning barcha oliy o'quv yurtlarda rus guruhleri mavjud.O'zbekistonda har yili bu tilda 1,4 million nusxada 50 turdagi o'quv qo'llanmalar va adabiyotlari, 82 ta gazeta va 20 ta jurnal chop etiladi.¹³⁴

Bularning barchasi davlatlarimiz o'rtasidagi keng qamrovli shartnomaviy-huquqiy asosga ega ikki tomonlama munosabatlar izchil rivojlanayotganligidan dalolatdir.

¹³³ А.Бобоев. МДХ:Москва саммити. //Халқ сўзи; 2008 йил, 23 февраль.

¹³⁴ Ҳамкорликнинг барқарор ривож. //Халқ сўзи; 2008 йил, 23 январь.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi istiqbolga erishgan dastlabki kunlardan boshlab xalqaro munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanib, uning xalqaro nufuzi kundan-kunga ortib bormoqda. Barcha mamlakatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish O'zbekiston tashqi siyosatining muhim tamoyillaridan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi munosabatlar shu asosda rivojlanib bormoqda.

Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar keng qamrovli bo'lib, ular diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy, texnikaviy, madaniy va boshqa sohalarni qamrab olgan. Bu munosabatlar ikki tomonlama va ko'p tomonlama asosda jadal suratlarda rivojlanib bormoqda.

Shuni alohida takidlash kerakki, Rossiya Federatsiyasi o'zining iqtisodiy, ilmiy, intellektual potentsiali, yer usti va yer osti boyliklari jihatidan jahonning yetakchi mamlakatlaridan hisoblanadi. O'zbekistonning ham boy imkoniyatlari mavjud. Shu jihatdan ikkala mamlakat ham o'zaro hamkorlik qilishdan manfaatdor.

Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo ayriboshlash hajmi yil sayin oshib bormoqda jumladan, 2001 yilda ikki mamlakat tovar ayriboshlash hajmi 1 milliard 28,6 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilda bu ko'rsatkich 4,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Qo'shma korxonalarining miqdorida ham yil sayin o'sib bormoqda, 2005 yilda O'zbekistonda 360 ta qo'shma korxona faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2009 yilda bundan qo'shma korxonalar soni 843 taga yetgan. Rossiyada 2005 yilda O'zbekistonlik sheriklar ishtirokida 267 qo'shma korxona faoliyat yuritgan bo'lsa, 2009 yilda bu ko'rsatkich 385 taga yetdi. O'zbekiston-Rossiya munosabatlarda yoqilg'i-yenergetika sohasidagi hamkorlik ham alohida ahamiyatga ega. Ikki mamlakat o'rtasida 2002 yil dekabrda "Gaz sohasida strategik qamkorlik to'qrisidagi bitim" imzolangan edi. U 2012 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston gazini xarid qilish, yurtimizdagi gaz konlarini o'zlashtirishda ishtirok etish. Markaziy Osiyo gazini mamlakatimiz hududi orqali tashishni nazarga tutadi.

O'zbekiston Rossiya bilan ijtimoiy sohada qam yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Fan-talim, tibbiyot, madaniyat va sanat, turli boshqa yo'nalishlarda aloqalar faollashmoqda. Ta'lim, kadrlar tayorlash soqasidagi o'zaro manfaatli qamkorlikka kelsak, bugungi kunda Rossiyaning iqtisodiyot, servis, boshqaruv, lingvistika, pedagogika, qishloq xo'jaligi, informatika soqalarida mutaxassislar tayyorlaydigan o'nlab oliy o'quv yurtlari bilan samarali xamkorlik yo'lga qo'yilgan. Toshkentda G.Plexanov nomidagi akademiya filiali faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari 2006 yil sentyabr oyida M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent filiali qam yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga kirishgan bo'lsa, 2006 yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Toshkent shaxrida " I.N.Gubkin " nomidagi Rossiya Davlat Neft va Gaz universiteti filiali faoliyatini tishkil etish to'qrisida qaror qabul qildigandi.

2010 yil 19-20aprel kunlari mamlakatimiz rahbari Islom Karimov Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi doirasida ikki mamlakat o'rtasida madaniy-gumanitar sohada 2010-2012 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi imzolandi,Mazkur tashrifning yana bir muhim ahamyati shundaki, tashrif doirasida ikki mamlakat o'rtasida harbiy-texnikaviy sohadagi 2010-2012 yillarga mo'ljallangan tadbirlar rejasini amalga oshirishga xko'maklashish masalalariga o'zaro anglashuv memorandum imzolandi. Umuman olganda ikki mamlakat rahbarlarining o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga oid masalar,mintaqaviy va xalqaro muamolar yuzasidan nuqtai nazar va qarashlari o'xshash va yaqinligi,xalqlarimizning do'stligi hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamyat kasb etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I.Rahbar adabiyotlar.

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O'zbekiston", 2011.
- 2.Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent.: "O'zbekiston", 1992.-74 b.
- 3.Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol,iqtisod,siyosat,mafkura. Toshkent.: "O'zbekiston", 1993.- 261 b.
- 4.Karimov I.A. Bizdan ozod va Obod Vatan qolsin. T.2-Toshkent.: "O'zbekiston", 1996.- 360 b.
- 5.Karimov I.A.Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3-Toshkent.: "O'zbekiston",1996.- 366 b.I.A.Karimov.
6. Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.Toshkent .: "Sharq",1998.-30 b.
- 7.Karimov I.A. Xavsizlik va baqaror taraqqiyot yo'li. T.6-Toshkent.: "O'zbekiston",1998.- 429 b.
8. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9-Toshkent.: "O'zbekiston",2001.- 432 b.
9. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10-Toshkent.: "O'zbekiston ",2002.- 432 b.
- 10.Karimov I.A. Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlik uchun.Toshkent.: "Islom universiteti" nashriyoti. 2002. -160 b.
11. Karimov I.A. Biz tanlangan yo`l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li .T.11 Toshkent .: "O'zbekiston ",2003.- 320 b.
12. Karimov I.A. Inson,uning huquq va erkinliklari-oliy qadriyat. T.14-Toshkent.: "O'zbekiston",2006.- 280 b.
- 13.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent.: "O'zbekiston",2008.
- 14.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent.: "O'zbekiston", 2011.

II. Maxsus adabiyotlar.

1. G'offorov A. "O'zbekiston va jahon hamjamiyati" , Toshkent.: "Universitet" 2003 yil- 80b
2. To'raev B, Ubaydullaev U. O'zbekiston mintaqada tinchlik himoyasida Toshkent .: "O'zbekiston" 2001 yil -64 b
3. Tyurikov V, G'ulomov R. Istiqlol yilnomasi odamlar, sanalar va voqealar (1991-2001). T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001-535 b
4. G'afarli M.S, Kasayev A.CH. Rivojlanishning O'zbek modeli: Tinchlik taraqqiyot asosi. Toshkent .: "O'zbekiston" 2001-430 b.
5. O'zbekiston va jahon hamjamiyati .Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2008 yil

III. Davriy matbuot

1. Akmad Xo'ja. O'zaro manfaatdorlik yo'li. //Xalq so'zi; 1994-yil, 5 mart.
2. Boboyev A.. Islom Karimovning Vladimir Putin bilan uchrashuv. //Xalq so'zi; 2001-yil, 5 may.
3. Boboyev A. O'zaro hamkorlik yanada mustahkamlash yo'lida. //Xalq so'zi; 2005-yil, 30 iyun.
4. Boboyev A. O'zbekiston va Rossiya ittifoqchi davlatlar. //Xalq so'zi; 2005-yil, 15 noyabr.
5. Boboyev A.. Sankt-Peterburg sammiti. //Xalq so'zi; 2007 yil, 12 iyun.
6. Boboev A. Hamkorlik ufqlari kengaymoqda. //Xalq so'zi; 2009-yil, 24 yanvar.
7. Boboyev A. MDH: Moskva sammiti. //Xalq so'zi; 2008-yil, 23 fevral.
8. Boboyev A. Islom Karimov va Dmitriy Medvedev uchrashuvi. //Xalq so'zi; 2008-yil, 7 iyun.
9. Boboyev A. Xavfsizlik ta'minlash yo'lidagi Hamkorlik. //Xalq so'zi; 2008-yil, 6 sentyabr.
10. Boboyev A. Hamkorlik ufqlari kengaymoqda. //Xalq so'zi; 2009-yil, 24 yanvar.

- 11.Fayziev N. Kelajakka intilgan hamkorlik. //Xalq so`zi; 2005-yil, 3 dekabr
12. Fenyutin S. O`zbekiston va Rossiya-teng huquqlilar muloqoti. //Xalq so`zi; 1991- yil, 29 oktyabr.
- 13.Haydarov S. Hamkorlikning yangi ufqlari. //Xalq so`zi; 2008-yil, 1 fevral.
- 14.Hidirov Q. Hamkorlik ifodasi. //Xalq so`zi; 2006-yil, 29 dekabr
- 15.Ivanova A. O`zbekiston-Rossiya Ta'lim sohasidagi hamkorlik. //Xalq so`zi; 2006-yil, 20 aprel.
- 16.Ivanova A.,Manzurova N.,Umarova I. Hamkorlik barcha sohalarda rivojlanmoqda. //Toshkent oqshomi; 2007-yil, 8 mart.
- 17.Karimov A., Hasanov.A. O`zbekistonga tahdid-Rossiyaga tahdiddir keldi. // Xalq so`zi; 2000-yil,20 may.
- 18.Karimov A..Hamkorlik rivojlanish sari. //Xalq so`zi; 2000-yil, 5 dekabr.
- 19.Manzurova N. Munosabatlarning izchil rivoji. //Xalq so`zi; 2007-yil, 29 noyabr.
- 20.Nikolaev V., O`ljaboev N. Hamkorligimiz samarasi.//Xalq so`zi; 2006-yil, 17 may
- 21.Nikolaev V. Qulay investitsiya muhiti-samarali hamkorlik omili. //Xalq so`zi; 2008-yil, 25 aprel.
- 22.Normatov I. Kelajak sari birgalikda. // Xalq so`zi. 2000-yil 19 may.
- 23.Rahimov S. Hukumatlararo qo`shma komissiya majlisi. //Xalq so`zi; 2003-yil, 27 sentyabr.
- 24.Sobirov B. O`zaro hamkorlikni rivojlantirish yo`lida. //O`zbekiston ovozi ; 1996-yil, 22 fevral.
- 25.Sobirov B. Jiddiy o`zgarishlar davri.// Ishonch; 2000-yil 19 may.
- 26.Suyunov E. Rossiya - O`zbekiston xamkorlik rivojlanmoqda.// Xalq so`zi; 2000-yil, 20 may
- 27.Umirov SH., Arziev F., Qilichev.A. Strategik hamkorlik yo`lida.//Xalq so`zi; 1998-yil, 13 oktyabr.
- 28.Umirov SH., Nanozov M. Biz tenglik asosidagi hamkorlik tarafdorimiz. //Xalq so`zi; 1999-yil, 12 fevral.

IV. Internet Ma'lumotlari

1. <http://www.mfa.uz/> .
2. <http://www.gov.uz> .
3. <http://www.russia.uz>.
4. <http://www.uzembassy.ru>.

5. MUHIM TARIXIY SANALAR

6. **1991-yil 26-oktabr** - I.Karimov rasmiy davlat safari bilan Moskvaga bordi.
7. **1992-yil 20-mart** - Kiyev shahrida O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida Protokol imzolandi.
8. **1992-yil 5-may** - Moskvada O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar asoslari to'g'risidagi Shartnoma imzolandi.
9. **1992-yil 22-iyul** - Toshkentda Rossiya Federatsiyasi Bosh vaziri A.Shoxin boshchiligidagi Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston delegatsiyalarining muzokaralari bo'lib o'tdi.
10. **1993-yil 26-may** - I.A.Karimov "Trud" gazetasi muxbirlarining savollariga qaytargan javoblarida Rossiyaga munosabatini bildirdi.
11. **1993-yil 19-mart** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasi Vazirlar Kengashi Raisi Viktor Chernomirdin bilan uchrashdi.
12. **1993-yil 11-noyabr**- Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining soliq xizmatlari o'rtasida Bitim imzolandi.
13. **1994-yil 2-3-mart**- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Rossiya Federatsiyasiga rasmiy davlat tashrifi bo'lib o'tdi.
14. **1994-yil 6-mart**- O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi Deklaratsiya e'lon qilindi.
15. **1995-yil 17-mart**- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimizga tashrif buyurgan Rossiya Federatsiyasi Bosh vazirining o'rinbosari Aleksey Bolshakovni qabul qildi.
16. **1997-yil 12-fevral** - mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi hukumat raisining o'rinbosari Valeriy Serov boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi

17. **1997-yil 22-23-dekabr** - Rossiya Federatsiyasi hukumatining raisi Viktor Chernomirdin amaliy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi.
18. **1998-yil 5-7-may** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Prezident Boris Yelsinning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.
19. **1999-yil 8-yanvar** - mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi hukumati raisining o'rinbosari Gennadiy Kulik tashrif buyurdi.
20. **1999-yil 11-fevral** - Do'rmon qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasi Kengashi Raisi Yegor Stoyevni qabul qildi.
21. **1999-yil 18-noyabr** - Do'rmon qarorgohida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo komissiyaning to'rtinchi majlisi bo'lib o'tdi.
22. **1999-yil 10-11-dekabr** - O'zbekistonga Rossiya Federatsiyasi hukumati Raisi Vladimir Putin rasmiy tashrif bilan keldi.
23. **2000-yil 28-mart** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti vazifasini ijro etuvchi V.V. Putin janobi oliylariga yo'llagan maktubi matbuotda e'lon qilindi.
24. **2000-yil 21-iyun** - Moskva shahrida MDHga a'zo davlatlar boshliqlari kengashining majlisi bo'lib o'tdi.
25. **2001-yil 3-5-may** - Rossiya diplomatiyasi amaliyotida sodir bo'lmagan voqealar yuz beradi.
26. **2001-yil 19-sentyabr** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi Xavfsizlik kengashi kotibi Vladimir Rushayloni qabul qildi.
27. **2002-yil 9-yanvar** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Igor Ivanovni qabul qildi.
28. **2003-yil 6-avgust** - mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin amaliy tashrif bilan keldi.
29. **2003-yil 22-avgust** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovga Oqsaroy qarorgohida Rossiya Federatsiyasining mamlakatimizdagi

Favqulodda va muxtor elchisi etib tayinlangan Farit Muxametshinga ishonch yorlig'i topshirdi.

30. **2004-yil 12-may** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroy qarorgohida Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri Sergey Ivanovni qabul qildi.
31. **2004-yil 3-iyun** - mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi Xavfsizlik kengashi kotibi Igor Ivanovni tashrif buyurdi.
32. **2005 yil 21 oktyabr** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda mamlakatimizga tashrif buyurdi Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovni qabul qildi.
33. **2005 yil 14 noyabr** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.
34. **2006 yil 13 fevral** - mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi Federal majlisining Davlat duması raisi Boris Grizlov tashrif buyurdi.
35. **2006 yil 16 mart** - Rossiya Federatsiyasi Federal majlisi Davlat dumasining MDH ishlari bo'yicha qo'mita raisi A.Kokoshin rahbarligidagi delegasiya mamlakatimizga tashrif buyurdi.
36. **2006 yil 10 aprel** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi Federal majlisi Federatsiyasi kengashi raisi Sergey Mironovni qabul qildi.
37. **2007 yil 7 mart** - mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi hukumat raisi Mixail Fratkovni tashrif buyurdi.
38. **2007 yil 29 oktyabr** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri Anatoliy Serdyukovni qabul qildi.
39. **2008 yil 6 iyun** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Sankt-Peterburg shahrida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Dmitriy Medvedev bilan uchrashdi.
40. **2009 yil 22 yanvar** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Dmitriy Medvedev davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.

41. **2012 yil 4-iyun** – I. Karimov taklifiga binoan V.Putin mamlakatimizga tashrif buyurdi.